

TALQIN VA TADQIQOTLAR

ILMIY-USLUBIY JURNALI

IMPACT FACTOR 8.2

Yuqori impact factor 8.2 ga ega bo'lgan Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnaliga qabul qilingan maqolalarga 3 ish kunida DOI raqam olinadi va Directory of Research Journals Indexing Zenodo, OpenAire, Cyberleninka, Google scholar (10 ish kuni) kabi xalqaro ilmiy bazalarda indekslanadi va jurnal belgilangan sanada to'liq shaklda www.talqinvatadqiqotlar.uz rasmiy saytiga joylanadi.

Jurnalga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha maqolalar qabul qiladi: Fizika-matematika fanlari, Kimyo fanlari, Texnika fanlari, Iqtisodiyot fanlari, Falsafa fanlari, Filologiya fanlari, Pedagogika fanlari, Psixologiya fanlari, Sotsiologiya fanlari, Geologiya va mineralogiya fanlari, Tarix fanlari, Geografiya fanlari, Yuridik fanlari, San'atshunoslik fanlari, Arxitektura fanlari, Biologiya fanlari, Qishloq xo'jaligi fanlari, Tibbiyot fanlari, Farmatsevtika fanlari, Veterinariya fanlari.

talqinvatadqiqotlar.uz

+99891-152-93-14

talqin@bk.ru

№6(43)
30.03.2024





TALQIN VA TADQIQOTLAR

ILMIY - USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA
IMPACT FACTOR: 8.2 | № 6(43)

30.03.2024



talqinvatadqiqotlar.uz

Talqin va tadqiqotlar

ilmiy-uslubiy jurnal

scientific-methodical
journal

научно-методический
журнал

Bosh muharrir:
I.I.Abdumannonov

Mas'ul muharrir:
O.S.Isroilov

Jurnal bir oyda ikki marta
chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti
Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiya
agentligida 2022- yil
12 - fevralda 1540 raqam
bilan ro'yxatga olingan.

ISSN 2181 - 3035

Jurnaldan maqola ko'chirib
bosilganda, manba
ko'rsatilishi shart.

Tel: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru
Сайт: talqinvatadqiqotlar.uz

Tahrir kengashi:

Muydinov Erkin Djamaldinovich

*Toshkent Moliya Instituti Andijon fakulteti
dekani*

Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Mamatov Obidxon Vaqqosovich

*Namangan davlat universiteti "Milliy
g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari"
kafedrasini mudiri, falsafa fanlari nomzodi*

Masharipova Gularam Kamilovna

*Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat
instituti*

Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich

*Namangan Impuls tibbiyot instituti, tarix
fanlari nomzodi, dotsent*

Zokirov Sanjar Ikromjon o'g'li

*TATU Farg'ona filiali, Kompyuter tizimlari
kafedrasini mudiri
fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa
doktori*

Ibragimova Mavluda Ro'zmetovna

*Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori
O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo
instituti katta ilmiy xodimi*

Jo'rayeva Sobira Eshqurbonovna

*O'zMU jurnalistika fakulteti, o'zbek
adabiyotshunosligi kafedrasini katta
o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori*

Djurayev Muxammadrizo Mamurovich

*Qo'qon davlat pedagogika instituti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Komilov Rustamjon Maxamadovich

*Farg'ona davlat universiteti Agrar
qo'shma fakulteti "Aholi tomorqalaridan
samarali foydalanish va dorivor
o'simliklar" kafedrasini katta o'qituvchisi,
q.x.f.f.d (PhD)*

Sattorov Vaxob Naqshbandovich

*Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va
adabiyoti institutida "Gumanitar va
Ijtimoiy" fanlar kafedrasida dotsenti*

Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O'zbek tili va adabiyoti universiteti Ijtimoiy
gumanitar fanlari kafedrasini katta
o'qituvchisi psixologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori*

Tahrir kengashi:

Raxmonov Elyor Abdullajonovich

*Qo'qon davlat pedagogika instituti Tarix
kafedrasini o'qituvchisi,*

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jepbarova Sayat Qurbanmiratovna

*Qoraqalpoq davlat universiteti Turkman
tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti*

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich

*Farg'ona davlat universiteti mevalilik va
sabzavotchilik kafedrasini mudiri
q.x.f.f.d (PhD)*

Bazarov Otabek Odilovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD

Azizov Olimjon Toxirovich

*Toshkent kimyo texnologiya instituti
GSKMT kafedrasini dotsenti*

Rahimova Maftuna Odilovna

*Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD
Mirzaahmedova Kamola Toxirovna
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
farmakologiya, fiziologiya kafedrasini
dotsenti*

Djumaniyozova Enajon Kutimovna

*Toshkent arxitektura qurilish instituti
xorijiy tillar kafedrasini katta o'qituvchisi*

Urazmetova Shoirazat Azatbayevna

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalar
universiteti Urganch filiali o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Djurayeva Dilnoza Shakirjonovna

*Termiz davlat universiteti algebra va
geometriya kafedrasini o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Maxkamova Dilafruz Yuldashevna

O'zbekiston Milliy universiteti

Tuproqshunoslik kafedrasini dotsenti

Usmonov Odil Kamilovich

*FarDU Axoli tomorqalaridan samarali
foydalanish va dorivor o'simliklar
kafedrasini dotsenti, q.x.f.n*

Nazarova Nargiza Mustaqimovna

*Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi,
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Hazratqulov Mutallib Rashidovich

Samarqand davlat universiteti

*«Maktabgacha, boshlang'ich va
texnologiya» kafedrasini dotsenti*

Tolibayev Xojaaxmed Yelbayevich

*Qoraqalpoq davlat universiteti Qoraqalpoq
tilshunosligi kafedrasini katta o'qituvchisi
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

IQTISODIY GEOGRAFIYA TA'LIMIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Abdullayev Madiyar Daniyarovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

www.geograf.uz@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab iqtisodiy geografiya ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi va uning samarali natijasi qanday ekanligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: geografiya ta'limi, iqtisodiy geografiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, masofaviy o'qitish, kunduzgi o'qitish, baholash.

Abstract: This article analyzes the method of using information and communication technologies in school economic geography education and its effective results.

Key words: geography education, economic geography, information and communication technologies, distance education, full-time education, assessment.

Jahon ta'limida zamonaviy va safatli bilim berish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. XXI asrda ta'lim yangi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarni shakllantirmoqda. Jahonda ta'lim sohasining rivojlanishi fanlarni interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlar iqtisodiyot sohalari va ilm-fan sohasidagi islohotlar umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya ta'limini isloh qilishga ahamiyat berilmoqda. Geografiya fani sohasida ham ta'lim jarayoniga ilg'or xalqaro tajribalarni joriy etish, o'quvchilarning fanni o'qish orqali bilim darajasining oshirishga xizmat qiladi. O'qitish amaliyotiga ta'limning innovatsion shakllarini joriy etish, o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Bu vazifani amalga oshirishda hozirgi zamonaviy pedagogning kasbiy mahorati alohida o'rin tutadi. Pedagog o'quvchilarga bilim beruvchi sifatidagina emas, balki ularning o'qishi, izlanishi va fikrlashi uchun sharoit yaratib beradigan shaxs sifatida turishi lozimdir.

Geografik ta'lim tizimini modernizatsiyalashning zamonaviy yo'nalishlaridan biri axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish hisoblanadi. AKTdan foydalanishning yangi yo'nalishlari va usullari talabalarning axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan va noyob zamonaviy kompyuterlar imkoniyatlari bilan bog'liq ochiq texnologik o'rganishdir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, bir tomondan, o'quvchilarga kerakli o'quv


materiallarini tezkorlik bilan yetkazib berish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, o'quv jarayonida turli shakl va usullarni tashkil etish imkonini beradi [1].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quv jarayonida kompyuterdan foydalanishga, modellashga, elektron darsliklarni, interfaol ko'rgazmalarni foydalanishga, internetda ishlashga va kompyuterdagi o'qitish dasturlari bilan o'qitishga asoslanadi. Axborot-metodik materiallar aloqa vositalaridan foydalanish orqali ta'limni yaxshilashga qaratilgan.

Geografiya darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va uni rivojlantirish uchun quydagi ishlarni amalga oshirish mumkin:

- dars jarayonida faollashtirish, muammoli hamda tadqiqot xarakteriga ega bo'lgan yangi g'oyalar yaratish;
- tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar qo'yish;
- noan'anaviy yondashuvlar, odatiy bo'lmagan tashabbuslar orqali harakatga keltiruvchi, ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydigan innovatsion metodlar yaratish va amaliyotga tatbiq etish;
- o'quv topshiriqlari, nostandart testlardan iborat bo'lgan darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish;
- o'qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to'la tushunishi va o'z faoliyatiga izchil tatbiq eta olishi zarur.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bir tomondan ta'lim oluvchilarga kerakli bilimlarni tezkorlik bilan yetkazishga, ikkinchi tomondan, o'quv jarayonida har xil usul va metodlar yordamida darslarni tashkillashtirishga imkoniyat yaratadi (1-rasm).



1-rasm. Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining shakllari

Kunduzgi o'qitish – bu jarayonda o'qituvchi bilan ta'lim oluvchilarning to'g'ridan-to'g'ri muloqoti asosida darslarni tashkillashtirish shaklidir.

Masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda bilim berish – o'quv jarayonining masofaviy ishtirokchilarining interaktiv o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan o'quv jarayonini tashkil etish shaklidir. Masofaviy ta'lim texnologiyalari amaliyotga yo'naltirilgan, samarali o'qitish, ta'limda faol va individual yo'naltirilgan yondashuvlarga o'tish, o'qituvchi va o'quvchilarning axborot-kommunikatsiya

texnologiyalariga oid kompetensiyalarini shakllantirish, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining axborot madaniyatini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ishlash o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini va o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ma'lumotlarning katta manbasiga kirish va ular bilan ishlash beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kelajak avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, tadbirkorlik iqtidori, ijodkorligi, erkin rivojlanishiga yo'l ochadigan pedagogik-psixologik sharoitlarni yaratishda ko'plab qulayliklar mavjud.

Hozirgi zamonda "o'qish va o'rganish" va mustaqil mehnat qilish, manfaatdor, ishonchli, mas'uliyatli va zukko shaxs bo'lib yetishish tamoyili ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

1-jadval

Darsning asosiy farqlari

An'anaviy dars	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim
<i>Maqsadi</i>	
Ta'lim oluvchilarning ko'nikmasini shakllantirish	Ta'lim oluvchilarning rivojlanishi, har bir darsda o'quv faoliyati shakllantirib, rivojlantirishda qiziquvchilik shakllantiradigan subyektga aylantirish.
<i>O'qituvchining harakati</i>	
Ko'rsatgan holda tushuntiradi, isbotlaydi, baholaydi.	Ta'lim berish faoliyatining tashkilotchisi.
<i>Ta'lim oluvchilarning harakati</i>	
Ta'lim oluvchi – o'qituvchining ta'siri ostidagi o'qitish obyekti	Ta'lim oluvchi – o'qituvchi faoliyatining subyekti. Faoliyatni o'qituvchidan emas, ta'lim oluvchidan o'rganadi.
<i>O'qituvchi va ta'lim oluvchilarning munosabati</i>	
Subyekt - obyekt	Subyekt – subyekt

O'qituvchi tomonidan olib boriladigan dars jarayonida turli xil o'qitish usullaridan foydalanganda o'quvchilarda quyidagi fazilatlarni tarbiyalash va rivojlantirishi mumkin:

- rivojlanish uchun talabaning shaxsiy fikrini tinglash bilim, ko'nikma va malakalardan foydalanish muhimligini anglash;
- topshiriq va mashqlar orqali o'quvchilarni rag'batlantirish hamda rivojlantirish;
- geografik obyektlar va ularni o'quvchiga tushunarli tarzda misollar bilan birga olib borish;
- o'quvchilarni ta'limda "o'rganish uchun baholash" orqali qo'llab-quvvatlash;

- tadqiqot faoliyati va faoliyatini rag'batlantirish;
- talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o'quvchilarning yakka, juftlik, guruh va ommaviy mashg'ulotlardagi harakatini tashkil etish.

Hozirgi kunda geografiya o'qitishda axborot texnologiyalarining ko'plab usullari qo'llanilmoqda. Ular orasida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. Axborotdan foydalanish. Xaritalar, katta hajmli va badiiy rasmlar, o'quv va hujjatli filmlaridan foydalanish geografiya darsida o'rganilayotgan obyektlarni aniq tushuntirishga yordam beradi. Taqdimot yordamida har bir darsni juda mazmunli va ko'rgazmali qilish mumkin, lekin taqdimotdan ortiqcha foydalanish o'quvchilarning qiziqishini va darsning umumiy samaradorligini kamaytirishi mumkin.

2. Talabalarga geografik tendentsiyalarni ko'rsatish. Yer yuzasida moddalar va suvning aylanishi, qit'alarining paydo bo'lishi, vulqon otilishining ketma-ketligi, tog'larning paydo bo'lish jarayonlari va litosfera plitalarining o'zaro ta'siri, okean oqimlari, atmosfera girdoblari, korxonalarining ishlashi, ishlab chiqarish usullari. ko'mir, gaz va neft qazib olish, elektr stansiyalarining ishlash tamoyillari - bularning barchasi dars jarayonida kiritilgan.

3. Ta'lim monitoringi. Amaliy elektron modullar yoki oldingi mavzular bo'yicha testlar va h.k. foydalanish mumkin. Interfaol kompyuter dasturlari insonning turli xil faoliyatining faolligiga olib keladi: fikrlash, gapirish, ular o'quvchilarga berilgan ma'lumotlarni tez qabul qilishga yordam beradi. Kompyuterga asoslangan trener o'quvchilarga amaliy ko'nikmalarni egallash imkonini beradi. Talabalarning ta'lim sifatini aniqlash uchun interaktiv test tizimi zarur. Monitoring dasturlari va trenerlar oldingi mavzular qay darajada olinganligini kuzatish imkonini beradi. Shubhasiz, bunday dasturlarning afzalliklari shundaki, past baho olgan yoki xatoga yo'l qo'ygan o'quvchilar vazifaga qaytish imkoniyatiga ega. Bunda o'quvchi o'zining tabiiy qobiliyatiga qarab ishlaydi.

4. O'quvchining tafakkurini rivojlantirish, geografiya faniga qiziqishini oshirish. Bu erda siz kompyuter yordamida uy vazifalarini bajarishingiz mumkin: eng so'nggi dunyo muammolarini, turli ma'lumotlarni tahlil qilish, talabalarning o'zini o'zi taqdim etishi, tadqiqot loyihalari va boshqalar.

Geografik ta'lim va axborot texnologiyalarining umumiy va umuman olganda sintezi o'quvchilarning tahliliy faoliyatini faollashtirish imkonini beradi. Dars jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish - axborotni tavsiflash, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish va talabalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish. Hozirgi vaqtda geografiya o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodlari bevosita o'quvchilarning bilish qobiliyatlari va faoliyati bilan bog'liq.

Umuman olganda iqtisodiy geografiya ta'limi jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarda mustaqil fikrlashi

takomillashadi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmasi rivojlanadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida olib borilgan darslarda o‘quvchilarning geografiya fani bo‘yicha mustaqil izlanishga bo‘lgan qiziqishlari yanada ortganligini ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vahobov H, Alimqulov N.R., Sultanova N.B. Geografiya o‘qitish metodikasi. Nodirabegim.–T .: 2021. – B. 22-34
2. Ibroimov, S., & Madaminova, M. (2020). Maktablarda geografiya fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash. Academic research in educational sciences, (1).
3. Sulstonova N.B. , Abdimurotov O.U. “Amaliy geografiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish”. “Ta’lim texnologiyalari” ilmiy-uslubiy jurnal 2014-yil № 2(46). Toshkent, 55-59
4. Abdimurotov O.U. “Tabiiy geografiya kurslarida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilishda interfaol metodlarning qo‘llanishi”. Ta’limni axborotlashtirishning zamonaviy interfaol texnologiyalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent, 2015-yil II-Tom 25-27-bet
5. Alimqulov N.R. Sulstonova N.B. Abdimurotov O.U. “ Umumiy yer bilimi kursida amaliy mashg‘ulotlarni o‘qitishda modulli ta’lim texnologiyasidan foydalanish”. Geografiya fani va ta’limning zamonaviy muommalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent, 20- may 2015-yil 361-364-bet
6. Sulstonova N.B. Abdimurotov O.U. “O‘zbekiston tabiiy geografiyasi kursida Keysstadi texnologiyasidan foydalanish”. Geografiya fani va ta’limning zamonaviy muommalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent, 20-may 2015-yil 423-426-bet
7. Abdimurotov O.U. Umumta’lim maktablari o‘quv atlaslari mazmunini takomillashtirish (5, 6 va 7-sinf atlaslari misolida). Ўзбекистон География жамияти ахбороти, 56-жилд – Т., 2019.

YASSAVIY TARIQATIDA ZIKR TARTIBLARI VA UNING BADIY ADABIYOTDAGI IFODASI

Abdullayeva Nilufar Ibragim qizi

Termiz davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasasi o‘qituvchisi

E-mail: nilufarabdullayeva789@gmail.com

ANNOTATSIYA; Ushbu maqolada “Yassaviya” tariqatida zikr tartiblariga, ularning aytilish usullariga hamda zikrning badiiy adabiyotdagi ifodasiga alohida e’tibor qaratilganligi va uning turli darajalanishlari ko‘rsatib o‘tilgan

Kalit so‘zlar: Tasavvuf, zikr, yassaviya tariqati, “Hu..hu” zikri, “Bismilloh” zikri

Annotation: This article shows that in the “Yassavian” sect, special attention is paid to the order of dhikr, the methods of their utterance and the expression of dhikr in fiction and its various degrees

Keywords: mysticism, zikr, yassavian sect, “Hu..hu "zikri," Bismillah " zikri

XII asrda Turkistonda turkiy xalqlar orasida ilk mustaqil tariqat keng tarqala boshladi, bu tariqat yassaviya tariqati edi. Turkiy tariqat barpo etish ehtiyoji islom dinini turkiy xalqlari orasida tarqatish ehtiyojidan yuzaga kelgandi. Shu bois yassaviylikning g‘oyaviy manbalari, birinchi navbatda, Qur’oni Karim va Hadisi Sharifdir. Bu tariqatning boshqa tariqatlardan farqlab turuvchi bosh asoslari odob va arkon jihatlarida ayrim tafavudlar mavjud. Shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqat, ishq va oshiqlik, orif va oriflik, darvish, faqru-fano, shayx, pir va valiylik, zikr, xilvat kabi tasavvufiy mavzularda o‘z aksini topgan yassaviylikning olti ahkomi bor: Haqni tanish, mutlaq jo‘mardlik, tom ma’nodagi sadoqat, yaqin martabasiga erishish, rizq uchun qayog‘urmaslik, teran tafakkur, soliklar uchun makon, zamon, ixvon, rabti sulton kabi to‘rt shartga erishish zarur. Tasavvufdagi boshqa tariqatlarda bo‘lgani singari «Yassaviya» tariqatining ham o‘ziga xos qat’iy qoidalari (odoblari) bor. Bu qoidalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Murid hech kimsani o‘z shayxidan afzal ko‘rmasligi, o‘sha mutlaqo taslimiyat izhor etmogi lozim.

2. Murid shunchalik zukko va idrokli bo‘lishi kerakki, to o‘z shayining barcha Rimuz va ishoralarini mukammal anglay bilsin.

3. Shayxning barcha aqvoli (so‘zlari) va af’oli (ishlari)ga murid sodiq bo‘lib, unga mutlaqo mute va mutaqlil bo‘lmog‘i lozim.

4. Murid o‘z murshidi (piri) ning barcha topshiriqlarini chustu choloklik (chaqqonlik) ila va sidqidildan bajarib, uni hamisha rozi kilib yurmog‘i zarur.

5. Murid o‘z so‘ziga sodiq, va‘dasiga rosih bo‘lib, o‘z murshidi ko‘nglida hech qanday shaku shubha tug‘dirmasligi zarur.

6. Murid, o‘z va‘dasiga vafodor va so‘zida ustivor turishi kerak

7. Murid o‘z ixtiyoridagi barcha molu mulkini, butun boru yug‘ini o‘z shayxiga ilsoq etmoq uchun doimo tayyor turmog‘i lozim.

8. Murid o‘z shayxining barcha sir-asroridan ogoh bo‘lib, uning ishorasini hech payt hayoliga keltirmasligi kerak .

9. Murid o‘z shayxining barcha takliflarini nazarda tutmog‘i, uning mushkulotini oson qilmog‘i, pandu nasixatlarini bajo keltirmog‘i shart.

10. Murid Alloh visoli uchun o‘z shayxi yo‘lida bugun moli va jonini nisoq etmoqqa tayyor turishi, uning do‘stiga- do‘st, dushmaniga dushman bo‘lib yashamog‘i shart.

Tariqat asoschining shunday mulohazasi borki: «Haqning so‘zini emas, o‘zini bilish» asosiy masaladir. Shuning uchun u bu dunyo rohatini qidiradigan so‘fiy - so‘fiy emas, toat-ibodat qilib, xalollik va poklikni targ‘ib etib, dunyoning g‘am-g‘ussasini chekib, xalq tashvishi bilan yashagan insongina haqiqiy so‘fiylar, deydi. Ahmad Yassaviyning islom olamiga mashhur bo‘lgan “Devoni Hikmat” asaridagi hikmatlarning aynan mazmuni ham shu tariqat asoslarinin ochish uchun juda katta ahamiyatga ega. Asarning boshdan oxiriga qadar ulug‘vor insoniy fazilatlar: oddiylik kamtarinlik mehr-muhabbat, ishq, sadoqat, haqiqat, adolat, hurfikrlilik insonni insondan ayirmaslik kabi masalalar falsafiy nuqtai nazardan tashviqot qilindi. Va aksincha, yomonlik nodonlik johillik adolatsizlik haqsizlik sadovatsizlik mol-parastlik kabi illatlar tanqid qilinadi. Bunday fazilatlariga ega bo‘lgan shaxslar insof, diyonatga chaqiriladi. Alloma fikricha, inson bu dunyoda molu davlatchga ishonib yashamasligi kerak bu dunyo hammadan ham qoladi. Shu bois insonlar bir-birlariga yaxshilik qilishlari, haqni ko‘z oldilariga keltirib o‘zgalar moli-davlatiga xasadgo‘ylik qilmasdan yashashlari lozim:

Beshak biling, bu dunyo barcha xalqdan o‘taro,

Inonmagin molingga, bir kun qo‘ldan ketaro.

Ota-ona, qarindosh keyin ketti, fikr qil,

To‘rt oyoqli chubin ot bir kun senga etaro.

Dunyo uchun g‘am yema, haqdin o‘zgani dema,

Kishi molini yema, sirot uzra tutaro.

Xullas, Payg‘ambarimizning “faqirlik fahrimdir”, degan muborak hadislariga asoslangan va o‘z tariqat yo‘liga sodiq bo‘lgan Xoja Ahmad Yassaviy hazrat Mir Alisher Navoiy yozganlaridek «Shohu gado aning irodat va ixlosi istoni»da bosh qo‘yadigan maqomga erishdi. Ulug‘ shoir Ahmad Yassaviyni ulug‘lab «Nasoyim ul-muhabbat» asarida «Makomati oliy va mashhur, karomati yuksak va cheksiz er-mish. . . Imom Yusuf Hamadoniyning as‘hobidindur» deganlar. . . Istaymizki, Ahmad

Yassaviy kabi ulug' allomalar ruhi millatimiz va xalqimizning istiqboldagi yo'lida madadkor bo'lgay.

Yassaviylik tariqatidagi zikr turlari va ularning tartiblarini biz "Devoni Hikmat" asaridagi hikmatlar orqali ko'rib chiqamiz. Hikmatlarning deyarli barchasida zikr va yassaviylik tariqatida aytish yo'li haqida she'riy usulda shoir aytib o'tgan. Yassaviya tariqatida asosan "arra zikri" mavjud bo'lib jahriy usulda ijro etilgan, ya'ni oshkora zikr qilishdir. Arra zikrida bosh egilgan holda qorinda nafasni saqlab tomoqdan arra tovushidek ovoz chiqariladi, shuning uchun bu tarzda zikr qilishni "zikri arra" deb atashgan. Bu tariqat nega aynan ochiq zikrni tanlaganligining asl sababi, tariqat shakllangan makondagi xalq shu ochiq zikrga talabi kattaligi, ochiq zikrga ehtiyojning ko'pligi edi. Ahmad Yassaviy yashagan xalq ichidagi insonlar jazbani va ochiqlikka moyilligi yuqori bo'lgan insonlar edi. Balki shu sababdir yassaviya tariqati keng va juda tez fursatda tarqaldi xalq orasida, qisqa qilib ayganda, jahriy zikr xalq orasida islomga mehrni uyg'otish uchun o'sha davrda eng yaxshi vositalardan biri bo'ldi.

Arra zikrining Xizr bilan bog'liq holda joriy etilgani haqida Qaziniy o'z asarida keng ma'lumot bergan. Uning yozishicha, kunlardan bir kun Xizr alayhissalom odatdagidek Ahmad Yassaviy bilan suhbat qurgani keladi. Ammo bu gal Xoja Ahmadni mahzun holda ko'radi va sababini so'raydi, shunda Xoja hazratlari: «Do'stlarimizning botinlarini qayg'u egallamish, uni qanday bartaraf etishni o'ylab g'am chekmoqdaman», – deydi. Shundan keyin Xizr alayhissalom "oh-oh" deya zikrulloh ijro eta boshlaydilarki, hozir bu zikrga so'fiylar istilosida "zikri arra" - derlar. So'ng Xoja Ahmad ham mazkur zikrni takrorlaydilar va natijada qablardagi "qasovatlari zoil bo'ladi". Ulug' pining tavsiyasi bilan bu zikr yassaviya silsilasida virdga aylanadi.¹ Yuqorida aytib o'tganimizdek, endi zikrlar tartibi uchun "Devoni Hikmat" ga yuzlanamiz

"Bismilloh" deb bayon ayla hikmat aytib,
Toliblarg'a duru gavhar sochtim mano.
Riyozatni qattiq tortib, qonlar yutib,
Man, "Daftari soniy" so'zin ochtim mano.

Bu misralarga e'tibor qaratsak, boshlanishidanoq Alloh Taolloni zikr qilish bilan boshlangan, "Bismilloh" ya'ni arabchadan, "mehribon va rahmli Alloh nomi bilan" deya boshlanmoqda, bundan ko'rinib turibdiki, yassaviya tariqatida eng kichik zikrlardan ham foydalanilgan. Jazbaga moyil bo'lgan xalq orasida yassaviylik tariqati keng tarqaldi va yassaviylikning ustunlaridan biri bo'lgan zikr (jahriy zikr)ga ham xalqning ehtiyoji ortib bordi. Yana bir hikmatga e'tibor bersak:

Qayu maxluq Xoliqig'a mute' bo'lsa,
Olam xalqi o'shal qulni suyar do'atlar.

¹Nodirxon Hasan. Yassaviylikka doir manbalar va "Devoni Hikmat". Monografiya, T - , "Akademnashr" 2012., 146-bet.

Zikrin aytib, bag‘ri pishib, ichi kuysa,
“Hu...Hu” desa, sonsiz uchqun uchar, do‘stlar. ²

Mana bu hikmat bandaning Tangriga muhtojligi haqida bo‘lib, kimki Xoliqni ya’ni Alloh Taolloni zikr etsa, “Hu... Hu” zikri bilan e’tibor bering aynan shu zikr bilan yod etsa, Alloh Taollo zikr qiluvchining kuygan bag‘ridan son-sanoqsiz nur (uchqun) uchishini takidlamogda. “Hu... Hu” zikri zikrlar ichida eng savob salobati ko‘p bo‘lgan zikrlardandir, muallif undan badiiy adabiyotda ustalik bilan foydalangan va o‘z fikrini ajoyib tarzda jonlantira olgan.

Ollah degil, jining quyub o‘tlar chiqsin,
“Hu” deganda so‘ngaklaring chaqmoq chaqsun,
Bag‘ring teshib, o‘pkang shishib, erib oqsun,
Oqsa bo‘lmas pir xizmatin qilmag‘uncha.

Ushbu yo‘lg‘a qadam qo‘yg‘an jondin kechti,
Zikri qalbni ayta-ayta ko‘ksin teshti,
Andin so‘ngra Jonon boqib eshik ochti,
Ochsa bo‘lmas pir xizmatin qilmaguncha. ³

Bu to‘rtliklarda ham zikr qilish haqida aytilmoqda, ammo zikr qilishni kim senga yo‘l –yo‘rig‘ini o‘rgatadi? Albatta pir ya’ni shayx o‘rgatadi. O‘sha “Hu” zikrini ham, “Zikri qalb” ni ham pirsiz aytmoq ham o‘rganmoq ham mushkuldur demoqchi - muallif.

Ahmad Yassaviy o‘z hikmatlarida “samo raqsi” nomi bilan mashhur bo‘lgan zikr turini, qanday paydo bo‘lganini aytib o‘tgan, e’tibor bering;

Maloiklar yig‘lib bir kun suhbat qurdi,
Raqsu samo‘ urmoq uchun yugurub yurdi,
Me’roj uzra haq Mustafo ani ko‘rdi,
Emdi man ham raqsu sabo urgum kelur.

Me’roj uzra haq Mustafo behush bo‘ldi,
Jibril keli haq Mustafo illigin tutti,
Qudrat birla Subhon Izim zikr o‘rgatti,
Ummat bo‘lsam, man ham zikrin ayg‘um kelur. ⁴

Bu murabbada ko‘rib turganimizdek payg‘ambar Muhammad (s. a. v)ning Me’rojga chiqqan kunlarida “zikri samo”ni ko‘radilar va ulardan bu zikrni o‘rganishni istaydilar, zikrni esa payg‘amvbarimizga o‘rgatish vazifasi Jibril (a. s)ga buyuriladi.

²Xoja Ahmad Yassaviy.Umr yeldek o‘taro.....(matn)hikmatlar.Nashrga tayyorlovchilar f.f.d.I.Haqqul,f.f.d.N.Hasan. – Toshkent:”Muharrir nashiryoti”,2020.32-hikmat,79-bet.

³ Ko‘satilgan manbadan, 124-hikmat, 234-bet.

⁴ Ko‘satilgan manbadan, 141-hikmat, 266-bet.

Shu tariqa “zikri samo” paydo bo‘lganiga ishora qilmoqdalar shayx hazratlari. Keyingi misralarga ham zikr haqida uning xususiyatlarni shayx hazratlari she’riy usulda juda ta’sirli qilib bayon etganlar:

“Qul huvalloh”, “Subhonolloh” vird aylasam,⁵

Biru Borim, diydoringni ko‘rmanmu?

Boshdin ayoq Hasratingni dard aylasam,

Biru Borim, diydoringni ko‘rmanmu?⁶

Bu misralardagi zikrlar ham eng ulug‘ zikrlardan deyiladi mashoyxlar tomonidan, bu ikki zikr “Qul huvalloh”, “Subhonolloh” ham besh mahallik nomoz ibodatida vojib bo‘lib, shu sababli shayxlar bu zikrlarni eng ulug‘ zikrlar qatorida deb ta’kidlashadi. Ikkinchi misradagi “Biru Borim” tashbehi Alloh Taolloga ishoradir.

Ollah-Ollah, Subhonolloh, qayon ketay?

Yo zuqlarim yerga sig‘mas, kimga aytay?

Sattor Egam, aybim yobsam,

Qaro yerning arosinda qoldim mano.

Sochu soqol xo‘p oqardi, ko‘ngul qaro,

Tongla borsam yo puchakman yohud saro,

Kim “Alastu bi Rabbikum?” dermish vaqto,

Bilolmasman qayu jam‘din bo‘ldum mano.

G‘ariblikni o‘qi tegdi, boshim qotti,

Esiz, umrum g‘aflat bilan zoe o‘tti,

Kofir nafsim tug‘yon qilib mani yutti,

Vo hasrato, na yuz bilan borg‘um mano.⁷

Birinchi misraga kelgan “Ollah-Ollah”, “Subhonolloh” kabi zikrlar yassaviya tariqatida eng ko‘p qo‘llaniladigan zikrlardan hisoblanadi, to‘g‘ridan to‘g‘ri Alloh Taolloga murajaat qilish undan panoh so‘rash, uning jamolini ko‘rishdan umidvorlik bu tariqatning eng ko‘p e’tibor beradigan tomonlaridandir.

“Laa ilaha illalloh” degan qulni og‘zidin

Bir yashil qush yang‘ bo‘lub uchar ermish.

Qanotlari to‘qlug‘luq duru yoqutdin,

Parvoz qilib, Arshdin Arshqa qo‘nar ermish.

Qul Xoja Ahmad, miskin-g‘arib, hayron qolib,

⁵Vird aylasam-doimo takrorlasam - ma`nosida

⁶ Ko‘satilgan manbadan , 7-hikmat, 28-bet.

⁷ Ko‘rsatilgan manbadan, Yangi topilgan hikmatlar, 10-hikmat,283-bet.

“Laa illaha illalloh” ni tilga olib,
Haq zikrini jonu dilga vosil qilib,
Ruh qushini lomakonda ko‘rar ermish.⁸

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, “Laa illaha illalloh” zikri eng buyuk zikr hisoblanib, bu zikr eng ko‘p qo‘llanilgan Xoja Ahmad Yassaviy tomonidan. Bunga isbot tariqasida “Devoni Hikmat” ni ko‘rsatishimiz mumkin.

Ayo oshiq, bu dunyoda mehnat tortqil,
Tortqan jabru jafolarni rohat bilgil,
“Hu” suhbatin qurg‘an yerga o‘zung urg‘il,
Urg‘an oshiq murodini topar, do‘stlar.

Bu yo‘llarning g‘izosidur qayg‘u, mehnat,
Mehnat tortib jafo chekkan ko‘rar rohat,
Saharlarda zori qilg‘ay ko‘rar davlat,
“Hu-Hu” teyu bu dunyodin o‘tar, do‘stlar.⁹

Bu hikmatda ham “Hu” zikridan foydalanilgan bo‘lib, uchinchi misradagi “Hu suhbatin” birikmasi ham “zikrulloh” zikr majlislariga ishora qilmoqda. Shayx hikmat orqali aytmoqchiki, zikr qilgan, Alloh Taolloni eslab yurgan banda g‘am-tashvish bilan yursada bu dunyoda, lekin Yaratganning jamolini haqiqiy dunyoda ko‘rihi bilan, butun zahmatlari unut bo‘larmish. Yana shu kabi hikmatlardan misollar keltirib o‘tamiz:

Qayu maxluq Xoliqig‘a mute‘ bo‘lsa,
Olam xalqi o‘shal qulni suyar, do‘stlar,
Zikrin aytib, bag‘ri pishib, ichi kuysa,
“Hu... Hu” desa, sonsiz uchqun uchar, do‘stlar.

Bulbul sayrar bo‘ston ichra hazor doston,
Hargiz bo‘lmas bo‘stonlari yo-zimiston,
Xizmat qilg‘an bu yo‘llarda bo‘lur xushon,
Parvoz qilib havo sari uchar, do‘stlar.¹⁰

Xulosa, “Devoni Hikmat” ning f.f.d. Nodirxon Hasanov va f.f.d. Ibrohim Haqqullar tomonidan 2022- yil nashr qilingan Xoja Ahmad Yassaviy “Umring yeldek o‘taro” nomli to‘plami bizning ishimizning asosini tashkil etdi, hikmatlarni tahlilga tortishda shu manbadan ko‘proq foydalandik. Qizig‘i shundaki, shu to‘plamdagi hikmatlarning o‘zida “zikr” so‘zidan besh yuz martadan ko‘proq foydalanilgan, ya’ni

⁸ Ko‘rsatilgan manbadan, 76-hikmat, 166-bet

⁹ Ko‘rsatilgan manbadan, 35-hikmat, 82-bet.

¹⁰ Ko‘rsatilgan manbadan, 32-hikmat, 79-bet.

“zokir bo‘lsang zikr qil”, “zikr qilgan Muhammad (s.a.v.)”, “zikr jannatga kalit” kabi, bundan ko‘rinib turibdiki, yassaviyya tariqatida zikrning o‘rini alohida bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбек адабиёти тарихи масалалари. - Т. : Фан, 1976. - 118 б.
2. Ўзбек классик шеърляти жанрлари. - Т. : Уқитувчи, 1979. -183 б.
3. Hasan N. XVI asr o‘zbek adabiyotida Yassaviy an‘analari. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 2004, 2-son.
4. Nayitmetov Abduqodir. “ Izzatini yaxshiroq etmak kerak”. ”Sharq yulduzi” 1991, 10-son, 152-bet.
5. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар: IV жилд. Дарслик ва ўқув қўлланмалар, илмий мақолалар ва тадқиқотлар. Нашрга тайёрловчи ва изох муаллифи Ҳ. Болтабоев. – Тошкент: Маънавият, 2006.
6. Shayx Abdulaziz Mansur “Qur’oni Karim ma’nolari tarjimasini”. Forum. Ziyouz.com sayti.
7. Shayx Muhammad Yusuf Mahammad Sodiq. Tafsiiri Hilol. – Т. : Hilol nashiyoti, 2009.
8. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Рухий тарбия. 2 китоб. Тикланиш. - Тошкент. :Шарқ, 2008. -197 б
9. N. Hasan. Yassaviylikka doir manbalar va “Devoni Hikmat”, Monografiya. T – “Akedemnashr, 2012.
10. Hoja Ahmad Yassaviy. Umr yeldek o‘taro.... . (matn)hikmatlar. Nashrga tayyorlovchilar f. f. d. I. Haqqul, f. f. d. N. Hasan. – T: Muharrir nashiryoti, 2020.

OROL BOYI HUDUDIDA QURG'OQCHILIK HODISASINING O'ZGARISHI

Imanmurzaev Adilbek Qaldibaevich

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Qoraqalpog'iston Nukus

adilbekimanmurzaev86@gmail.com

Kalmurzaev Jaqsiliq Sabitovich

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Qoraqalpog'iston Nukus

kalmurzaev.97@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunda Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishi natijasida qurg'oqchilik hodisalari kuchayib bormoqda. Bunga asosiy sabalardan biri sifatida Orol dengizining qurishi oqibatida va inson omili da o'zining salbiy ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Aholining tabiiy osishi va iqlim o'zgarishi, suv bolgan talab, anomal issiq kunlarning me'yordan ko'payishi, yogin va qor kunlarning qishqarishi qurg'oqchilik hodisalarini yuzaga keltirmoqda. Jahon banki ekspertlariga ko'ra, 2050 yilga borib Sirdaryo havzasida suv resurslari 5 foizgacha, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. 2050 yilda Markaziy Osiyoda chuchuk suv taqchilligi yalpi ichki mahsulotning 11 foizga pasayishiga olib kelishi mumkin. Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan meteorologik stansiyalari ma'lumotlari asosida SPI da'sturi qollanildi. Ushbu da'stur hududagi yillik yog'in miqdorlari toplanib ularni SPI da'sturida GIS texnologiyasi va matematik statistik usullar yordamida hududlar kesimida taqsimlandi. Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan Taxtako'pir, Chimboy, Qong'iroq, Nukus, meteostansiyalari gidrometeorologik ma'lumotlari tahlil qilish natijasida iqlim o'zgarishi xaritalash, raqamlash va analiz qilindi. Havo harorati oshishi suv tanqisligini kuchaytiruvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Mintaqaning asosiy suv manbasi – qor va muzliklar, ammo ko'p qismi qor hisobiga shakllanadi. Tog'lar qishda yog'gan qorlar evaziga yoz fasli uchun suv saqlash funksiyasini ham bajaradi. Qor ko'rinishidagi yog'ingarchilik miqdori qisqarib borishi muammoli vaziyatni yanada chigallashtirmoqda va suvni yoz fasli uchun saqlashda jiddiy muammolar yuzaga keltirmoqda. Buning oqibatida asriy muzliklarning qisqarish tendensiyasi davom etyapti.

Kalit so'zlar: yog'in, harorat, namlik, shamol, radiatsiya, meteorologik qurg'ochilik, Tuproq yoki qishloq xo'jaligi qurg'oqchiligi.

Kirish


Jahon meteorologiya tashkiloti (WMO) ma'lum qilishicha, so'nggi yarim asrda eng ko'p o'lim keltirgan tabiiy ofat — qurg'oqchilikdir. WMO ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi 50 yil davomida qurg'oqchilik — 650 ming, dovullar — 577 ming, suv toshqinlari — 58,7 ming, havo haroratining keskin o'zgarishlari — 55,7 ming kishining umriga zomin bo'lgan. Har yili havo haroratining ko'tarilib borishi natijasida Markaziy Osiyoda qurg'oqchilik hodisasi jiddiy havf tug'dirmoqda va bu o'z navbatida iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Markaziy Osiyo aholisining 60% foizining asosiy daromad manbai sifatida qishloq xo'jaligiga bog'liqligi, shu sababli hozirda mintaqada qurg'oqchilik hodisasi yildan yilga kuchayib bormoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, Markaziy Osiyoda 152,06 million gektar yoki 38,43 foiz yer maydoni qurg'oqchilik holatida bo'lib, shundan 1,33 foizi qattiq qurg'oqchilik, 0,23 foizi esa o'ta qurg'oqchilik holatidadir. Tahdid ko'lamini tushunish uchun shuni ta'kidlash kerakki, bu hudud butun Fransiyadan deyarli uch baravar katta. Markaziy Osiyoda qurg'oqchilik shu jumladan: O'zbekistonda butun mamlakat hududining 89,5 foiziga, Turkmanistonda — 88 foiziga, Qozog'istonda — 76 foiziga ta'sir qiladi. Tadqiqotlar natijasida va mutaxassislar fikriga ko'ra Markaziy Osiyoda qurg'ochlik hodisasining yuzaga kelishida iqlim o'zgarishi, Orol dengizining qurishi, aholi sonining ko'payishi, yerlarning chorlanishga uchrashi, tabiiy resurslardan beqaror foydalanish va atrof-muhit muhofazasining samarasizligi bilan bog'liqligini qayd etgan. Orol dengiz boyi hududu relefiga ko'ra yassi tekislik bo'lib, yer yuzasining qiyaligi juda ham sezilarsiz bo'lganidan Amudaryo qadimdan tarmoqlanib, ko'plab ilon izi meandralar hosil qilib juda sekin oqqan. Saqlanib qolgan qadimgi o'zanlar relfni ancha murakkablashtirgan. Orol boyi hududu relfi tabiiy holatining o'zgarishida insonning xo'jalik faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etgan, relf ancha tekislangan. Hozirgi kunda Orolning qurigan o'rnida katta sho'rqo'm sho'rxoqli landshaftlar majmuasidan iborat tirik cho'l tarkib topdi. Mazkur cho'l ayrim manbalarda Orolqum ham deb nomlanadi. Shamol ta'sirida Orolning qurigan tubidagi qumlar havoga ko'tarilib, asosan Quyi Amudaryo hududi ko'chmoqda. Mo'ynoq shahri atrofiga har gektar maydonga 1000 kg tuzli changlar tushmoqda va ozining salbiy ta'sirin yuzaga keltirdi. Shu boyisdan Orol boyi hududidagi qurg'oqchilik o'zgarishi dinamikasini o'rganish **dolzarb** muammolardan hisoblanadi. Ushbu maqolada asosiy tadqiqot obiecti sifatida Orol boyi hududu tanlandi, tadqiqot predmeti sifatida Orol boyi hududida qurg'oqchilik hodisalarning qishloq xo'jaligi, insoniyotga va iqtisodiyotga ta'sir etish ehtimollari baholandi.

Markaziy Osiyoning xavfli gidrometeorologik hodisalari jumladan qurg'oqchilikning hudud boylab tarqalishi va qishloq xo'jaligiga ta'sirini baholash ko'plab olimlarning tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan. Tadqiqotchilardan T.Yu.Spektorman, G.N.Trofimov, V.O.Usmonov, V.F. Usmonov, L. Babushkin, J.Matmuratov, V.Chub, V.Karnauxova, F.Muminov, F.Raxmanova, A.Alautdinov,

G.Xolboev, O.Sultashova va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan. Orol boyi hududida kuzatilgan qurg'oqchilik hodislarni so'nggi yillarda V.L. Chub tomonidan keng tadqiq etilgan. Standartlashtirilgan yog'ingarchilik indeksi (SPI) 1992 yilda AQShning Kolorado shtat universitetida McKee va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqot va ishlarning natijasi paydo bolgan. Indeksning asosi shundaki, u qurg'oqchilikning chastotasi, davomiyligi va vaqt shkalasi bilan bog'liqligiga asoslanadi. 2009 yilda Jahon meteorologiya tashkiloti (WMO) SPI ni asosiy meteorologik qurg'oqchilik indeksi sifatida tavsiya qildi, bu boshqa mamlakatlar qurg'oqchilik sharoitlarini kuzatish va kuzatish natijalarini solishtirshga va taqqoslashga imkom beradigan dastur hisoblanadi. Standartlashtirilgan yog'ingarchilik indeksi xususiyatlari: 1 oydan 48 oygacha yoki undan ko'proq vaqt oralig'ida hisoblanishi mumkin bo'lgan yog'ingarchilik ehtimolini ishlab chiqish uchun istalgan joy uchun tarixiy yog'ingarchilik yozuvlaridan foydalanadi. Boshqa iqlim ko'rsatkichlarida bo'lgani kabi, SPI ni hisoblash uchun ishlatiladigan ma'lumotlarning vaqt seriyasi ham ma'lum bir uzunlikka ega bo'lishi shart emas. Guttman ta'kidlaganidek, agar qo'shimcha ma'lumotlar uzoq vaqt ketma-ketlikda mavjud bo'lsa, ehtimollik taqsimoti natijalari yanada ishonchli bo'ladi, chunki haddan tashqari nam va o'ta quruq hodisalarning ko'proq namunalari kiritilgan. SPI ni 20 yillik ma'lumotlarga nisbatan hisoblash mumkin, ammo ideal holda vaqt seriyasi, hatto etishmayotgan ma'lumotlar hisobga olinsa ham, kamida 30 yillik ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. SPI intensivlik shkalasiga ega bo'lib, unda ijobiy va salbiy qiymatlar hisoblab chiqiladi, ular nam va quruq hodisalarga bevosita bog'liqdir. Qurg'oqchilik uchun yog'ingarchilik taqsimotining "dumlari"ga va ayniqsa, o'rganilayotgan mintaqa iqlimiga ko'ra kam uchraydigan hodisalar hisoblangan ekstremal quruq hodisalarga katta qiziqish mavjud. Qurg'oqchilik hodisalari SPI natijalari, qaysi vaqt shkalasi tekshirilayotganidan qat'i nazar, doimiy ravishda salbiy bo'lib, -1 qiymatiga yetganda ko'rsatiladi. Qurg'oqchilik hodisasi SPI 0 qiymatiga etgunga qadar davom etadi deb hisoblanadi. Qurg'oqchilik SPI -1 yoki undan past bo'lganida boshlanadi, ammo standart mavjud emas, chunki ba'zi tadqiqotchilar 0 dan kichik, ammo unchalik -1 bo'lmagan chegarani tanlaydilar, boshqalari esa qurg'oqchilikni dastlab klassifikatsiya qiladilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasida tanlangan meteostantsiyalarda kuzatilgan atmosfera yog'inlari va havo harorati asosida qurg'oqchilik indeksleri SPI dasturida hisoblandi. Oylik yog'in ma'lumotlari asosida standartlashtirilgan yog'in indeksi (SPI) va oylik havo haroratlari orqali standartlashtirilgan harorat indeksi (STI) maxsus SPI calculator dasturi yordamida aniqlandi. Qo'ng'iroq va Taxtakupir meteostantsiyalarida yoz va qish oylarida qurg'oqchilik indeksi kuyidagicha uzgargan. Taxtako'pir meteostantsiyasida 2011 yilda qish faslida eng kichik qiymatga ega bulgan. Ma'lumotlar tahliliga qaraganda qish oyidagi eng qurg'oqchilik yil Qo'ng'iroq meteostantsiyasida esa 2021 yilda kuzatilgan. Yoz oyidagi qurg'oqchilik indeksiga


tuxtalsak. Taxtakupir meteostantsiyasida yoz oyidagi eng qurg'oqchil davr 1997 yilda SPI qiymati -2 kuzatilgan. Indeksning eng minimal qiymati ko'rsatkichi sababli Qo'ng'irotda meteostantsiyasida kurg'oqchilik davri kuzatilmagan. Bunga asosiy sabab yoz fasli o'zining quruq bo'lishi bilan izohlanadi. Dastlab, Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan meteostantsiyalarida yoz va qish oylarida kuzatilgan 3 oylik qurg'oqchilik indeksi o'rganildi.



1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan Qo'ng'irotda va Taxtakupir meteostantsiyalarida yoz va qish oylarida kuzatilgan qurg'oqchilik hodisalari.


Bahor va kuz oyidagi meteorologik qurg'oqchilikni o'rganish ham dolzarb hisoblanadi. Mazkur hodisa qishloq xo'jaligiga ekinlariga va iqtisodiyotga salbiy ta'sir etadi. Tahlil natijasiga ko'ra, Taxtakupir meteostantsiyasida kuz faslidagi qurg'oqchilik indeksi -2 ga teng bo'lib 2003 yilda kuzatilgan (1-rasm). Qo'ng'irotda meteostantsiyasida kuz faslidagi qurg'oqchilik indeksi -2.3 2019 yilda sodir bo'lgan va bu eng qurg'oqchil yil bo'lganligidan dalolat beradi. Tanlangan meteostantsiyalarda bahor oylaridagi qurg'oqchilik indeksi hodisalari o'rganildi va tahlil qilindi. Unga ko'ra, Taxtakupir meteostantsiyasida bahor oyidagi qurg'oqchilik indeksi -2.9

kuzatilib, 2001 yil eng qurg'oqchil yil bulgan. Qo'ng'iro't meteostantsiyasida bahor oyidagi qurg'oqchilik indeksi -1.5 kuzatilib, bu 2011 yilda kuzatilgan (1-rasm).




2-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan Qo'ng'iro't va Taxtakupir metostantsiyalarida bahor kuz oylarida kuzatilgan qurg'oqchilik hodisalari

Tanlangan meteostantsiyalarda kuzatilgan qurg'oqchilik indeksining 6 oylik ko'rsatkichi aniqlandi. Taxtakupir meteostantsiyasida kuzatilgan qurg'oqchilik indeksi SPI6 aniqlanda -2.1 qiymatga ega bo'ldi va 2011 yilda qurg'oqchilik kuzatilgan. Qo'ng'iro't meteostantsiyasida qurg'oqchilik indeksi qiymati -2.3 teng bo'lib, 1999 yilda sodir bo'lgan.



3-rasm. Qoraqalpog‘iston Respublikasida joylashgan Qo‘ng‘irot va Taxtakupir metostantsiyalarida kuzatilgan meteorologik qurg‘oqchilik hodisalari

Qoraqalpog‘iston Respublikasida joylashgan meteostantsiyada 1993-2021 yillarda kuzatilgan o‘rtacha yog‘in miqdoridan foydalanib, Qo‘ng‘irot va Taxtakupir 12 oylik yoki yillik qurg‘oqchilik indeklari hisoblandi. (4-rasm). Taxtakupir meteostantsiyasida qurg‘oqchilik indeks qiymati -2.1 ga teng bo‘lib, 2001 yilda eng qurg‘oqchilik kuzatilgan. Qo‘ng‘irot meteostantsiyasida qurg‘oqchilik indeksi qiymati -2 sodir etilib, 2013 yilga esa eng qurg‘oqchilik kuzatilgan davr to‘g‘ri kelmoqda. Qurg‘oqchilik yilning issiq mavsumida uzoq vaqt yog‘in yog‘masligi va havo haroratining yuqoriligi sababli va o‘simliklarning bug‘lanishi kuchayishni keltirib chiqaradi.



4-rasm. Qoraqalpog‘iston Respublikasida joylashgan Qo‘ng‘irot va Taxtakupir meteostantsiyalarida kuzatilgan 12 oylik qurg‘oqchilik indekslari

Quyi Amudaryo mintaqasida qurg‘oqchilik tez-tezdan kuzatiladi. Bunga asosiy sabablardan biri Orol dengizining qurishi va iqlim ilishi oqibatida sodir bo‘lmoqda. Qoraqalpog‘iston Respublikasida joylashgan Taxtakupir meteostantsiyasi meteorologik ma’lumotlari asosida qurg‘oqchilik indeksi tahlili ko‘rib chiqildi. Unga ko‘ra 1992-2021 yil oralig‘ida Taxtakupir meteostantsiyasida qurg‘oqchilik 8 marta kuzatilgan.

Xulosa

Qoraqalpog‘iston Respublikasida joylashgan Taxtakupir va Qo‘ng‘irot meteostantsiyalarda kuzatilgan bahorgi va kuzgi sovuq urish qurg‘oqchilik indekslari tahlili ko‘rib chiqilda va quyidagi natijaga kelindi. Bahorgi qora sovuqning eng erta muddati Nukus meteostantsiyasida 11.03.2019 da kuzatilgan. Chimboy va Qo‘ng‘irot esa mazkur xavfli gidrometeorologik hodisaning eng erta muddati mos ravishda 12.03.2019 va 28.03.2010 sanalarida kuzatilgan. Bahorda oxirgi qora sovuq sodir bo‘lishining o‘rtacha muddati Nukusda 1.04. sanasiga to‘g‘ri kelishligi aniqlandi. Taxtakupir meteostantsiyasida 2011 yilda qish faslida eng kichik qiymatga ega bo‘lgan. Ma’lumotlar tahliliga qaraganda qish oyidagi eng qurg‘oqchilik yil Qo‘ng‘irot meteostantsiyasida esa 2021 yilda kuzatilgan. Yoz oyida Taxtakupir meteostantsiyasida eng qurg‘oqchil davr 1997 yilda SPI qiymati -2 kuzatilgan. Taxtakupir meteostantsiyasida kuzatilgan qurg‘oqchilik indeksi SPI6 -2.1 qiymati 2011 yilda kuzatilgan. Qo‘ng‘irot meteostantsiyasida qurg‘oqchilik indeksi qiymati -2.3 1999 yilda sodir bo‘lgan. Taxtakupir meteostantsiyasida SPI12 qurg‘oqchilik indeks qiymati -2.1 ga 2001 yilda kuzatilgan. Qo‘ng‘irot meteostantsiyasida SPI12 -2 2013 yilga esa eng qurg‘oqchilik kuzatilgan. Taxtakupir meteostantsiyasida 1992-2021 yillar oralig‘ida SPI6 qurg‘oqchilik indeksi 8 marta kuzatilgan. Qo‘ng‘irot meteostantsiyasida 1992-2021 yillar oralig‘ida SPI6 qurg‘oqchilik indeksi 7 marta sodir bo‘lgan.

Foydaniilgan adabiyotlar:

1. Imanmurzaev Adilbek Qaldibaevich, Abdullaev Tozabek Jumabay O‘g‘li, Ganiev Nurman Janabergenovich, Khudaybergenov Nurlan Saparbay O‘g‘li, & Amangeldieva Umida Joldasbayevna. (2022). ASSESSMENT OF HAZARDOUS HYDROMETEOROLOGICAL PHENOMENA AFFECTING AGRICULTURAL CROPS. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 10, 125–131. Retrieved from <https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/149>

2. Qaldibayevich I. A. et al. Qishloq xo‘jaligi ekinlariga ta’sir etuvchi xavfli gidrometeorologik hodisalarni baholash //ГЕОГРАФИЯ: ПРИРОДА И ОБЩЕСТВО. – 2022. – №. 2.

3. Турдимамбетов И. Р. и др. Аҳоли турмуш сифатининг таркибий тузилиши //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 1285-1293.

4. Иманмурзаев А. Қ, и др. ОЦЕНКА ОПАСНЫХ ГИДРОМЕТЕОРОЛОГИЧЕСКИХ ЯВЛЕНИЙ, ВЛИЯЮЩИХ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫЕ КУЛЬТУРЫ,(НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН) //Экономика и социум. – 2023. – №. 3-1 (106). – С. 336-343.

5. Imanmurzaev Adilbek Qaldibaevich, Bazarbaev Nursultan Azatbay Ogli, Omonboyev Shohzod Davronbek O'g'li, & Berdimuratova Aysara. (2023). Dangerous Hydrometeorological Phenomena Observed in Lower Amudarya Region. Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences, 23, 49–53. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/tjabs/article/view/4854>

6. Qaldibaevich, I. A. ., O'g'li, A. T. J. ., Janabergenovich, G. N. ., & O'g'li, K. N. S. . (2023). Assessment of Dangerous Hydrometeorological Events Affecting Agricultural Crops with a Modern Program . International Journal of Biological Engineering and Agriculture, 2(2), 12–17. <https://doi.org/10.51699/ijbea.v2i2.1076>

7. Imanmurzaev A. Q., & Abdullaev , T. J. O. (2023). JANUBIY OROL BOYI IQLIM SHAROITI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(21), 73–77. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/983>

8. Imanmurzaev , A., & Sultashova , O. (2024). QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI HUDUDIGA XAVFLI GIDROMETEOROLOGIK HODISALARNING TA'SIRINI VAHOLASH. Interpretation and Researches, 2(3(25)).
извлечено от

<http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2187>

9. Хожамуратова Р. Т., Жангабаев Д. М., Иманмурзаев А. Қ. МНОГОЛЕТНИЕ ИЗМЕНЕНИЯ МИНЕРАЛИЗАЦИИ ГРУНТОВЫХ ВОД НА ОРОШАЕМОЙ ТЕРРИТОРИИ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.

10. <https://www.droughtmanagement.info/standardized-precipitation-index-spi/>

11. <https://qalampir.uz/uz/news/markaziy-osiye-yerlarining-39-foizi-k-urgok-chilik-%D2%B3olatida-bmt-93066>

PEYORATIV BAHONING SEMANTIK-PRAGMATIK VA LINGUOKULTUROLOGIK TADQIQI (O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA)

Latipjonova Malikakhon Odiljon qizi

Andijon Davlat Universiteti, Chog'ishtirma tilshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik yo'nalishi, 1-bosqich doktoranti

latifjonova96@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida peyorativ baho kategoriyasiga oid qilingan manbaalarni turli misollar bilan ko'rib chiqadi.

Kalit so'zlar: Peyorativ leksika, vulgarizmlar, varvarizmlar, zoomorf, invektiv leksika, semalar, frazeologizmlar, salbiylik, emotsionallik, bo'yoqdorlik, baho kategoriyasi, salbiy-ekspressivlik, pragmatik, stilistik, lingvokulturologik.

Literature review

Peyorativ baho kategoriyasini o'rganish tarixi uzoq yillarga borib taqalmasada, o'tgan va ayni bugungi asr g'arblik olimlar uni bir qanchda prizmadan chuqur o'rgangan va tahlil qilgan. Ammo o'zbek va ingliz tillarida ushbu mavzuga oid chog'ishtirma, qiyosiy va tarjima muammolariga oid tadqiqot ishlari kam ko'rilganligi bois, bu sferadagi monografiyalar, dissertatsiyalar, referatlar, maqola va tezislar juda kam uchraydi.

Aslini olganda, "Peyorativ" so'zining ildizi qadimgi lotin tiliga borib taqaladi va u *peiorare* so'zidan olinib, "Yomonlashtirish" degan ma'nolarni ifodalaydi. "Peyorativ" leksika insonlar nutqida ma'lum bir shaxsga nisbatan salbiy baho berish, unong tashqi ko'rinishi, harakteri va mana shu kabi xususiyatlarini obro'sizlantirish, kamsitish uchun ya'ni, tilda salbiy ekspressivlikni ifodalash uchun barcha tillarda keng qo'llaniladi. Tarixiy lingvistikaga nazar tashlaydigan bo'lsak, derogativ (salbiylik) ma'nolarni ifodalaydigan so'zlarni "Pejoration" ya'ni peyorativlik deb olinganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ushbu turdagi leksemalar tillarda turli xil nomlarda kelishi mumkin, masalan derogativ so'zlar, invektiv so'zlar kabi boshqa bir muqobil hollarda tilshunoslikda keng ishlatilishi mumkin.

Peyorativ leksikalar yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar rus olimlarining ishlari salmoqli desak yanglishmagan bo'lamiz. Rus olimasi A.V. Kovalevskaya¹¹ Peyorativ ruhdagi frazeologizmlarning turlarini rus va nemis tillarida qiyoslagan tilshunos hisoblanib, u peyorativlik aks etgan frazeologizmlarning funksional-semantik, emotsionallik darajasini, semantik, stilistik hamda morfologik vazifalarini,

¹¹ Ковалевская, Анна Владимировна Пейоративные наименования лица в немецкой фразеологии

gipero-giponimik modifikatsiyasini o'rganib, ushbu turdagi birikmalarni leksiko-semantik turlarga ajratib klassifikatsiya qilgan.

Rus olimasi Y. V. Kovalenko¹² baho kategoriyasini tipologiyasini yaratib, uning kategorial statusini, ichki tuzilmasini, va mana shu baholash tizimini boshqa tillardagi baholash kategoriyalari bilan aloqasini, peyorativ bahoning semantikasini hamda pragmatikasini o'rgangan bo'lsa, yana bir rus olimasi I. V. Turetskova¹³ lug'atdagi hamda diskursdagi manifestatsion peyorativlarni antropomorflik jihatdan o'rganib chiqqan. S.V. Leskina¹⁴ rus va ingliz tillaridagi frazeologizmlarida uchrab turadigan peyorativlik kategoriyasini lingvokulturologik, pragmatik, leksikografik aspektdan o'rganib, so'zlarning pragmalingvistik kategoriyalarini oydinlashtirgan va ularning o'rtasida chog'ishtirma ishlarini olib borgan.

Rus olimasi Y. N. Guts¹⁵ Peyorativ leksikani "Normativlik xususiyatiga ega bo'lmagan leksika" deb nomlab, ularning zamonaviy shaharlik yosh o'smirlar o'rtasida foydalanish darajasini o'rganar ekan peyorativ leksikani genderlik aspektda tadqiq etgan.

Tadqiqot ishlarini sinchliklab o'rganar ekanmiz, peyorativlik tabiatiga xos bo'lgan so'zlarni genderlik aspektda bir qancha olimlar izlanishlar olib borganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, rus tilshunoslaridan bo'lgan G. A. Vildanova¹⁶ va Ye.A. Kudisovaning birgalikdagi tadqiqotida gender diskursida zoomorf harakterdagi peyorativlarni hamda evfemizmlarni funksional-semantik hamda gender jihatdan muannas va muzakkar jins kategoriyalariga ajratilib, chuqur yoritilganlini bilishimiz mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari, yana bir us olimi V.Yu. Mihaylin¹⁷ rus tilidagi mavjud erkaklarga oid obro'sizlantiruvchi so'zlarning kelib chiqishi va ularning evolutsiyasini tahlil qilgan.

Shuningdek, yana bir rossiyalik tilshunos olim Ye.V. Romanin¹⁸ rus va ingliz tilidagi etnomadaniy chegarlarni buzuvchi, madaniyatlararo to'qnashuvlarga sabab bo'luvchi ksenopeyorativ leksemalarni klassifikatsiya qilishi, peyorativ so'zlardagi gibridlik identifikatsiyasi, transgressiyasi oydinlashtirilishi, tarjima muammolariga yechimlar berilishi tilshunoslikda anchayin katta bo'lgan o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

¹² Языковая актуализация пейоративной оценки: на материале английского языка

¹³ Турецкова, Ирина Валерьевна Языковые средства манифестации пейоратива в словаре и тексте: на материале немецких пейоративных имен, характеризующих человека

¹⁴ Лескина, Седа Витальевна Категория пейоративности в русском и английском языках в аспекте лингвокультурологического сопоставления: на материале фразеологических единиц

¹⁵ Гуц, Елена Николаевна Ненормативная лексика в речи современного городского подростка: В свете концепции языковой личности

¹⁶ Zoomorphic pejoratives and euphemisms in gender discourse: psycholinguistic aspect G.A. Vildanova, Ye.A. Kudisova

¹⁷ В.Ю. Михайлин русский мат как мужской обесценный код проблема происхождения и эволюция статуса

¹⁸ Образ нарушителя границ этнокультурной и этнорасовой идентичности в зеркале ксенопейоративных лексем английского и русского языков Романин Евгений Владимирович

Afsuski, o'zbek tilshunosligida o'z peyorativ so'zlarning etimologiyasi, pragmatikasi, stilistikasi, lingvokulturologiyasi hamda lingvodidaktikasiga oid manbalar kam o'rganilganligi tufayli, bu mavzuga oid yaratilgan avtoreferatlar, dissertatsiya ishlari risolalar yetishmaydi. Ayni paytda peyorativlik xususiyatiga ega bo'lgan so'zlar ko'proq salbiy semalarga ega bo'lganligi bois, o'zbek tilshunoslari tomonidan chetlab o'tilganligi sababli, tilshunoslarning e'tibori kamroq bu sohaga qaratilgan. Milliy qadriyatlarimizda asosan ijobiylikni aks ettiruvchi tadqiqotlarga nisbatan ko'proq e'tibor va qiziqish borligi bunga sabab bo'lgan deyish mumkin. Shunga qaramasdan, manbalarda bir qancha ilmiy maqolalar ko'zga tashlanadi. Masalan, D. Qurbonov¹⁹ vulgarizmlarning stilistik uslubiy vositalar sifatida ko'rib chiqib ulardagi emotsional-ekspressiv holatlarini ifodalovchi **padaringga la'nat, xunasa, dayus, shallaql, haromi, ilon, to'nka** kabi leksemalarni tahlil qilgan.

I. Ataboyev²⁰ o'zbek tilida ishlatiladigan ta'na va dashnom konseptini o'rgangan, norozilik va tanqidning turli kontekstlarda qanday ifoda etilishini ko'rib chiqqan. U o'zbek tilidagi ayblash semasiga ega bo'lgan **to'nkamoq, bo'hton qilmoq, ayb taqmoq, tuhmat qilmoq, tuhmat uydirmoq** fe'llarini, ta'na semasiga kiruvchi **ta'na qilmoq, o'pkalamoq, o'pka qilmoq, gina qilmoq, ginaxonlik qilmoq, malomat qilmoq** kabi fe'llarni ajratgan. Shuningdek u g'iybat semasiga kiruvchi bir qator **chaynamoq, gap qilmoq, gapso'z qilmoq, g'iybat qilmoq, orqasidan tosh otmoq** kabi mish-mish tarqatish uchun kishilar o'rtasida ishlatiladigan fe'llarni aniqlagan. Bundan tashqari, I. Ataboyev subyektiv hukmni o'qish, kishini so'kish, qarg'ash maqsadida qo'llaniladigan **urishmoq, qarg'amoq, qarg'ishlamoq, so'kmoq, koyimoq, la'natlamoq, la'nat yog'dirmoq, la'nat aytmoq, la'nat o'qimoq** kabi fe'llarni ham farqlaydi.

Yana bir o'zbek tilshunosi G.Rahimova²¹ ingliz va o'zbek tillarida baho munosabatini ifodalovchi so'zlarni tahlil qilib, so'zlovchining obyektga o'zining subyektiv baho munosabatini bildirishda ijobiy va salbiy bo'yoqdorlikning yuzaga keltiruvchi sath birliklar haqida xulosalar qilgan. Uning fikricha, o'zbek tilida baho munosabati turli ko'rinishlarda(morfologik, leksik, mantiqiy semantik, sintaktik) bo'lishi mumkin.

Emotsional bo'yoqdorlikka oid qilingan salmoqli ishlardan misollarni yana bir o'zbek tilshunosi D. Yaqubovning²² ilmiy maqolasida ham ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Xususan, peyorativ bahoga oid so'zlarning zoomorfizmlar yordamida ifodalanishi haqida ham o'zbek tilida bir qancha ilmiy maqolalar yaratilganligiga

¹⁹ Vulgarizmlar uslubiy vosita sifatida, Международная научно-практическая конференция 2-я международная конференция по навыкам XXI века в преподавании и изучении языка 9 Апреля, 2021 г

²⁰ O'zbek tilida ta'na-dashnom va tanbeh tushunchasi, <https://fil.jdpu.uz/index.php/fil/issue/view/49>

²¹ Ingliz tili va o'zbek tilida baho munosabatining ifodalanishining usul va vositalari, <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/906>

²² Nafrat ma'nosini ifodalovchi leksik birliklarning struktur tahlili, <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/sf/article/view/8668>

guvoh bo'lishimiz mumkin. Masalan, D. Norkuziyeva²³ o'zbek tilidagi zoomorfizmlarni entolingvomadaniy jihatdan misollar yordamida tahlil qilgan. Uning maqolasida o'zbek badiiy adabiyotida uchrovchi zoomorfizmlar va ularning stilistik-semantik xususiyatlari, hayvon obrazlarining turli xalqlar madaniyati va adabiyotida tutuvchi o'rnini va ularning ahamiyati yoritib berilgan.

Yana bir tilshunos D. Turg'unova²⁴ hayvon harakatini ifodalovchi so'zlar orqali o'zbek tilidagi leksemalarning lingvistik-kognitiv tomonlarini tahlil qilgan. U tilimizda keng qamrovda qo'llaniladigan **akillamoq, vangillamoq, vishshilamoq, sayramoq, uvillamoq, vovvullamoq, hangramoq, ulimoq, o'v tortmoq, g'inshimoq, ingramoq** kabi hayvon harakatlarini salbiy bo'yoqdorlikka ega so'zlar qatoriga kiritib, ma'no ko'chishi sifatida qo'llanishini yoritib bergan. O'zbek tilshunosi D. Negmatova²⁵ esa o'zbek badiiy adabiyotida qo'llanuvchi zoonimlarning insonlarga tashbehlantirish holatlarini aniqlab, ularga misollar bergan. Uning fikricha, o'zbeklar orasida eng ko'p boqiladigan uy hayvoni it bo'lganligi tufayli ham, it so'zi o'zbek tilida etalon bo'lib kelgan peyorativ bahoga ega metaforalar soni ko'p bo'lib, ularning barchasi insonga nisbatan qo'llanilib, turli ma'nodagi salbiy semalarni ifodalaydi. Masalan, birgina itning o'zi ham haqorat, ham uy ishlarini qiluvchi, yugurdak, xizmatkor, malay sifatida yoki o'zgalarga zulm beruvchi inson sifatida ham qo'llanishi mumkinligini yoritib bergan. Hamda it zoonimi salbiy bo'yoqdorlikka ega bir qancha ma'nolar anglatishi mumkinligini isbotlab bergan.

Xususan, boshqa bir o'zbek tilshunosi J. O'rozov²⁶ o'z maqolasida avvallari invektiv leksika, haqorat sifatida qabul qilingan, ammo hozirgi zamonda bunday hisoblanmaydigan va neytral leksika tomoniga harakatlanayotgan leksemalar haqida bir qancha ma'lumotlar bergan. U haqorat ma'nosidagi leksemalarni quyidagicha tasnif qilgan:

- So'kinish semasi – *iflos, qo'tir, ahmoq, bezbet;*
- Jamiyatda kishilar orasida qoralanuvchi terminlar – *o'g'ri, fohisha, tovlamachi, firibgar, poraxo'r, kolxoz, haromi, lo'li;*
- Tarixan salbiy bo'yoqdorlikka ega terminlar – *millatchi, qonxo'r;*
- Biror kasb nomi bilan boshqa kasb nomlarini qo'llash – *shifokorni jal-lod, qassob* deyish;
- Zoomorf metaforalar – *mol, eshak, it, hayvon, cho'chqa;*
- Salbiy ma'noli fe'llar – *uxlatish, kiydirish, yedirish;*

²³ Zoomorfizmlarning etnolingvomadaniy xususiyatlari, Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, vol. 3 no. 6 (2022): bilig'fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi (issn: 2181-1776) /

²⁴ O'zbek tilida leksemalarning lisoniy-kognitiv tahlili (hayvon harakatini ifodalovchi so'zlar misolida), RESEARCH FOCUS | VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2023 ISSN: 2181-3833 ResearchBip (14) | Google Scholar | SJIF (5.708) | UIF (8.3)

²⁵ Badiiy adabiyotda zoonim so'zlarning tashbeh sifatida qo'llanishi, Innovation in the modern education system

²⁶ Haqorat mazmunidagi leksemalarning lingvokriminalistik tahlili, <http://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/download/11/12>

• Odam fe'l-atvorini salbiy baholovchi terminlar – *ablah, yaramas, maraz, latta, lapashang, dovdur, itfe'l, jinni* singari so'zlar haqorat ma'nolarida keng qo'llanishi mumkin.

Hozirgi globallashuv mobaynida axborot telekommunikatsiyalar, virtual olamda axborot almashinuvi tufayli kishilar ijtimoiy tarmoqlarda suhbatlashadi, ma'lumotlar almashadi. Hozirgi davrda tarmoqlarda tarqalgan juda ham ko'p varvarizmlar, vulgarizmlar ko'pki, ular xatto tillarda yangidan-yangi neologizmlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Shunday, aynan qizg'in davrdagi jarayonlarni o'rgangan o'zbek tilshunosi D. Abdurayimova²⁷ ijtimoiy tarmoqlarda ayollar va erkaklar o'rtasidagi shaxsiy yozishmalarda uchraydigan salbiy bo'yoqdorlikka ega vulgar so'zlarni o'rganib, lingvistik ekspertiza qilgan.

Uning fikricha, vularizmlar yeti xil maqsadlarda ijtimoiy tarmoqlarda keng qo'llaniladi:

- kamsitish;
- tahqirlash;
- haqorat;
- obro'sizlantirish;
- g'iybat;
- tuhmat;
- qarg'ish

Va vulgarizmlarning shakllari ham turli ko'rinishlarda: so'z, ibora, hayvonlarning tovushiga taqlid tarzida yoki ma'lum bir ramz holida bo'lishi mumkin.

Shuningdek, professor B. O'rinboyev²⁸ vulgarizmlarni emotsional-ekspressivlik jihati va qo'llanish doirasi bo'yicha 3 katta guruhga bo'ladi:

a) kishilarning xarakteri va tabiatidagi ojizlikni ifodalovchi vulgarizmlar: *ezma, juvonboz, xumpar, buzuq, mug'ombir, latta kabi*;

b) kishining tashqi ko'rinishidagi jismoniy nuqsonlarini ko'rsatuvchi vulgarizmlar: *mechkay, ko'ppak, maymoq, ilonbosh, simyog'och, qovoqbosh, ayronbosh, gumbaz, bordonday, qo'ng'iz, mo'ylov, kal, do'rdoq, qiyshiq, qo'tirkabi*;

v) so'kish, koyish, haqoratlash ma'nosini ifodalovchi vulgarizmlar: *bachchag'ar, yaramas, ablah, xumpar, nomard, badbaxt, nonko'r, gumroh, qistaloq, ahmoq, sintaloq, xotin-taloq, galvars, kasofat, nahs, ko'ppak, og'moq (telbalanmoq), og'zikatta (kibrhavola), nazariilmaydi (mensimaslik) kabilar*"

²⁷ Shaxsiy yozishmalarda vulgar so'zlar va ularning tadqiqi, "Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollor" Respublika I ilmiy-texnikaviy konferensiya, Vol. 1 №. 01 (2021)

²⁸ Sherboyeva G. Badiiy matnda sotsial chegaralangan so'zlar.-Andijon: 2017. -B. 32.

Tilshunos vulgarizmlarni badiiy adabiyotlarda ma'no bo'yoqdorligi va qo'llanilishiga ko'ra uch turga ajratib tahlil qilgan bo'lsa, tadqiqotchi D. To'rayeva²⁹ vulgarizmlarni ma'no jihatidan ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. So'kinch so'zlari.

2. Qarg'ishlar.

So'kinch so'zlarning qo'llanish darajasiga ko'ra 3 guruhga bo'lish mumkin:

1) haqorat so'kinch so'zlar;

2) qo'pol so'kinch so'zlar;

3) o'ta qo'pol so'kinch so'zlar.

Olimaning fikriga ko'ra, "So'king'ich so'zlari insonning aynan tabiati, xarakteridan kelib chiqqan holda aytilishi, yoki unga nisbatan noo'rin tarzda amalga oshirilishi ham mumkin."

Izlanuvchilar tomonidan peyorativ baho kategoriyasi bir muncha o'rganilgan bo'lsa-da, ammo bu mavzuda o'rganilmagan tomonlar talaygina. Xususan, olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari peyorativ baho kategoriyasini ifodalovchi vositalar tizimga solinib, yangi tasnifi ilgari surilishini, ingliz va o'zbek tillarida peyorativ baho nutqiy vositalarining linguokulturologik xususiyatlari (antropomorf, zoomorf, fitomorf peyorativlar kesimida) o'rganilishini, peyorativ baho kategoriyasining nutqiy voqealanishini ifodalovchi vositalarining tarjima masalalariga doir muammolar yoritilishini va sifatli tarjimini ta'minlovchi tavsiyalar ishlab chiqilishini taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ковалевская, Анна Владимировна Пейоративные наименования лица в немецкой фразеологии

2. То'rayeva D.A. Shaxsiy yozishmalarda vulgar so'zlar va lingvistik ekspertiza // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar. Respublika I ilmiy texnikaviy konferensiya. Vol. 1 №. 01. 2021. –B. 21

3. Shaxsiy yozishmalarda vulgar so'zlar va ularning tadqiqi, "Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar" Respublika I ilmiy-texnikaviy konferensiya, Vol. 1 №. 01 (2021)

4. Sherboyeva G. Badiiy matnda sotsial chegaralangan so'zlar.-Andijon: 2017. -B. 32.

5. Zoomorfizmlarning etnolingvomadaniy xususiyatlari, Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, vol. 3 no. 6 (2022): bilig|fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi (issn: 2181-1776) /

²⁹ To'rayeva D.A. Shaxsiy yozishmalarda vulgar so'zlar va lingvistik ekspertiza // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar. Respublika I ilmiy texnikaviy konferensiya. Vol. 1 №. 01. 2021. –B. 21

6. O`zbek tilida leksemalarning lisoniy-kognitiv tahlili (hayvon harakatini ifodalovchi so`zlar misolida), RESEARCH FOCUS | VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2023 ISSN: 2181-3833 ResearchBip (14) | Google Scholar | SJIF (5.708) | UIF (8.3)
7. Badiiy adabiyotda zoonim so`zlarning tashbeh sifatida qo`llanishi, Innovation in the modern education system
8. Haqorat mazmunidagi leksemalarning lingvokriminalistik tahlili, <http://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/download/11/12>
9. Vulgarizmlar uslubiy vosita sifatida, Международная научно-практическая конференция 2-я международная конференция по навыкам XXI века в преподавании и изучении языка 9 Апреля, 2021 г
10. O`zbek tilida ta`na-dashnom va tanbeh tushunchasi, <https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/issue/view/49>
11. Ingliz tili va o`zbek tilida baho munosabatining ifodalanishining usul va vositalari, <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/906>
12. Nafrat ma`nosini ifodalovchi leksik birliklarning struktur tahlili, <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/sf/article/view/8668>
13. Языковая актуализация пейоративной оценки: на материале английского языка
14. Турецкова, Ирина Валерьевна Языковые средства манифестации пейоратива в словаре и тексте: на материале немецких пейоративных имен, характеризующих человека
15. Лескина, Седа Витальевна Категория пейоративности в русском и английском языках в аспекте лингвокультурологического сопоставления: на материале фразеологических единиц
16. Гуц, Елена Николаевна Ненормативная лексика в речи современного городского подростка: В свете концепции языковой личности
17. Zoomorphic pejoratives and euphemisms in gender discourse: psycholinguistic aspect G.A. Vildanova, Ye.A. Kudisova
18. В.Ю. Михайлин русский мат как мужской обесценный код проблема происхождения и эволюция статуса
19. Образ нарушителя границ этнокультурной и этнорасовой идентичности в зеркале ксенопейоративных лексем английского и русского языков Романин Евгений Владимирович
20. Ковалевская, Анна Владимировна Пейоративные наименования лица в немецкой фразеологии

SHOIRNING TO'RTLILIKLAR OLAMI (SHAFOAT TERMIZIY IJODI MISOLIDA)

Mahfuza Muxtorova Shavkatjon qizi

TerDU o'qituvchisi

mahfuzamuxtorova5@gmail.com

Annotatsiya: Kichik lirik janrlar tabiati shoir she'riyatining eng sermahzul va boy ijodiy meroslaridan biri sanaladi, ushbu maqolada shoining to'rtliklari janr va qofiyaviy jihatlariga ko'ra tahlilga tortilgan.

Kalit so'z: ruboiy va tuyuq, qofiyalanish, "Muvozanat" to'rtligi.

Аннотация: Природа малых лирических жанров считается одним из наиболее плодотворных и богатых творческих наследий поэзии поэта.

Ключевые слова: рубай и туюк, рифма, «Равновесие», четверка.

Abstract: The nature of small lyrical genres is considered one of the most fruitful and rich creative heritages of the poet's poetry.

Key words: rubai and tuyuq, rhyming, "Balance" four.

Ma'lumki, o'zbek mumtoz she'riyatida to'rtlik, ruboiy va tuyuq kichik lirik janr sifatida tasniflangan. Zamonaviy o'zbek she'riyatining taraqqiyotida ushbu janrlar yetakchi mavqega ega bo'lgan poetik shakllardan biri bo'lib kelmoqda. "To'rtlik – to'rt misralik band turi; *katren, murabba*. To'rtlik she'riyatda eng ko'p tarqalgan band turlaridan sanaladi. To'rtlik bandda qofiyalanish tartibining *kesishgan* (abab), *o'rama* (abba), *juftlik* (aabb) shakllari ko'proq tarqalgan. Shuningdek, uning *murabba* shaklidagi qofiyalanish tartibi (aaab sssb) ham bo'lib, bu shakl nisbatan kam tarqalgan. "Devonu lug'atit turk"da misol qilib keltirilgan xalq qo'shiqlari, asosan, to'rtlik bandlardan tarkib topgani uning turkiy xalqlar adabiyotida qadimdan mavjud bo'lganini ko'rsatadi"³⁰. "Jahon xalqlari she'riyatida mashhur janrlardan biri. Aksariyat, *aavy, avav, avva* va Sharq she'riyatida esa, *aava* tarzidagi qofiyalanish tartibiga ega. Hijolari, vazni turlicha; ko'pincha to'qqiz, o'n bir bo'g'inli bo'ladi"³¹. Atoqli adabiyotshunos L.I.Timofeev va S.V.Turaevlar tomonidan tuzilgan va nashrga tayyorlangan «Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati»da esa ushbu ta'rif-tushunchaga ancha keng va chuqur izoh berilgan: «Katren (fransuzcha quatrain) – to'rtlik. «Katren» atamasi faqat tugallangan fikrni ifodalovchi to'rtlikka nisbatan qo'llangan..."³². "Adabiyotshunoslik lug'ati"da to'rtlik va ruboiy o'rtasida farqlar haqida quyidagicha fikrlar keltirilgan: "...to'rt misradan tarkib topuvchi she'r, xalq og'zaki ijodi va

³⁰ Адабиётшунослик луғати. /Курунов Д., Мамажонов З., Шералиева М. – Тошкент: Академнашр, 2010. – В. 339.

³¹ Квятковский А. Поэтический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – С. 338.

³² Словарь литературоведческих терминов. – М.: Просвещение, 1974. – С. 123.

mumtoz sharq she'riyatidagi *ruboiynavislik* an'alarining davomi sifatida hozirgi o'zbek she'riyatida ancha keng tarqalgan she'r shakli; shakl jihatidan tasniflanuvchi lirik janr. Mumtoz lirikadagi *ruboiy* va *tuyuqdan* farqli o'laroq, to'rtlik janriga mansub etish uchun she'rning to'rt misradan iborat bo'lishi kifoya: unga ruboiy yoki tuyuqqa qo'yilgan kabi vazn, kompozitsiya bilan bog'liq qat'iy talablar qo'yilmaydi. Ma'lumki, aruzda yozilgan har qanday to'rt misrali she'r ham ruboiy bo'la olmaydi, buning uchun she'r hazaj bahrining 24 tarmog'idan birida yozilishi shart. Demak, mantiqan qaralsa, to'rtlik aruzda ham, barmoqda ham yozilishi mumkin. Masalan, Cho'lponning "XX asr", "Parcha" nomli hamda "Lola gulning dog'idur..." deb boshlanuvchi to'rtliklari ramal bahrida yozilgan. Shunga qaramay, yangi o'zbek she'riyatida to'rtliklar, asosan, barmoqda yozilmoqda. Mavzu jihatidan chegaralanmagani, voqelikdan olingan taassurotlar, hayot haqidagi fikr-xulosalarni ixcham, lo'nda ifodalash imkonini bergani uchun to'rtlik janri yangi davr she'riyatida ham keng ommalashdi"³³. "Adabiy tur va janrlar" kitobida o'tgan asrda o'zbek adabiyotida to'rtlik janrida Oybek, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Zulfiya, Asqad Muxtor kabi shoirlar nomi bilan Ramz Bobojon, Shuhrat, Tolib Yo'ldosh, Shukrullo, Erkin Vohidov, Barot Boyqobilov ijod qilgani qayd etiladi³⁴. Shuningdek, ushbu janr rivojida Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Halima Xudoyberdiyeva, Sirojiddin Sayyidlar ham samarali ijod qilgani kuzatiladi.

Shafolat Rahmatullayevning to'rtliklari qofiyalanish jihatdan asosan *aava* tarzida bo'lib, faqatgina barmoq vaznda yaratilgan.

Zamin bozorida yurgan yosh, **qari**,
Fursatning naqd kirim xarjidir **bari**.
Ul bozor burjida yotgan qabrlar,
Vaqt savdogarning chiqim **daftari**.

Shoirning to'rtliklari to'q va och qofiyali, ularda ko'pincha olmoshlar, otlar qo'llanilgani kuzatiladi. Shuningdek, u to'rt satrni mantiq mohiyatidan kelib chiqib to'rtliklar nomi bilan nomlaydi. Har bir to'rtligida qo'yilgan sarlavha shoir ijodining tadrijiy takomiliga xizmat qilgan. To'rtliklarda ichki va tashqi qofiyada qo'llangan har bir so'z ma'no jilolari turli mazmunda kelib, ona tilmiz boyligini, uning lisoniy xazinasini namoyish ettirgan.

Shoirning yuqoridagi to'rtligida chuqur falsafiy ma'no umumlashtirigan bo'lib, u ko'pchilikka manzur va mashhur bo'lgan. Bu to'rtligida "vaqt savdogar" ifodasida berilsa, "Siz kimu men kim" to'rtligida uni "vaqt degan donishmand" deb o'ziga xos o'xshatishda ifodalaydi:

³³ Адабиётшунослик луғати. /Курунов Д., Мамажонов З., Шералиева М. – Тошкент: Академнашр, 2010. – В. 339.

³⁴ Адабий тур ва жанрлар. (тарихи ва назариясига оид). 2-жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Фан. 1992. – Б. 229-230.

Sirtimga qarab siz chiqarmang *hukm*,
Bilmasdan dilimda nimalar *hokim*.
Davrada vaqt degan bir donishmand bor,
U hali aytadi siz kimu men *kim*.

Mazkur she'r xalqimizdagi "Avval o'yla, keyin so'yla" maqoliga mos mazmuni anglashiladi. Har bir insonni "sirti" – "tashqi ko'rinishi" emas, ichki olami, undagi qalb go'zalligiga ahamiyat berish lozimligini uqtiradi. Ming afsuski, ko'pchilik insonlar ko'rinishidan odamiylik bahosiga loyiq ko'riladi, ichki dunyosi bilan hammaga ham manzur bo'lmaydi. Shoir insonga baho berishni vaqt degan donishmand hukmiga qoldirishni aytarkan, faylasufona hukm aytadi: kimning qanday insonligi vaqt o'tib ayon bo'ladi. Uning ushbu to'rtligidan "Vaqt – oliy hakam" degan muhim xulosa chiqarish mumkin. Umuman, shoir chuqur mushohadaga chorlovchi aksariyat to'rtliklarida ("Siz kimu men kim", "Hamma cholg'uvchi", "Keksalik", "Umr shoshar", "O'tadi", "Baytimda qabrim" kabi) umrning tez o'tishi, uning ortga qaytmasligi, fursat g'animatligini ifodalovchi vaqtning falsafiy qonuniyatlari teran aks ettiriladi. Uning ayniqsa quyidagi "Charx jarayon" nomli to'rtligida "vaqt qo'mondon" oksimoron birikmasida o'ziga xos badiiy orginal topilma yaratilganini ko'rish mumkin:

Urug'dan gul unib donga bermish sud,
Ishq zavqida go'dak ingasi mavjud.
Bu charx jarayonga vaqt qo'mondon,
Hayot maydonida sipoh har vujud.

Mumtoz Sharq she'riyatida odatda ruboiy (to'rtlik) janrida hayot, dunyo, moddiy va ruhiy borliq, taqdir to'grisidagi teran falsafiy umumlashmalar, hayotiy tajribadan olingan, aql-zakovat elagidan o'tgan pandnoma ruhidagi umumlashma xulosalar jamlanadi. Shu ma'noda shoirning to'rtliklari o'quvchini hayot, olam, yashash mazmuni bilan bog'liq mushohadalarga undaydi, ular haqida o'ylash, fikrlashga va xulosa chiqarishga da'vat etadi:

Buyuk daftarimiz osmon, yer, olam,
O'zligimiz o'sha daftar aro jam.
Ko'kka yulduzlarni, yerga ranglarni,
Ko'zimiz beto'xtov chizuvchi qalam.

Shoirning to'rtliklarida uning badiiy tafakkur tarzini ko'rsatuvchi o'ziga xos muhim jihatlardan biri – tabiat manzaralari bilan bog'liq yaratilgan tasvirlari namoyon bo'ladi. Shoir nazdida "osmon, yer, olam" – "buyuk daftar". Uni makon tutgan insonning o'zligi shu daftarda mujassam. Bu daftarga "Ko'kka yulduzlarni, yerga ranglarni" – inson "ko'zi" "beto'xtov" tasvir etadigan "qalam". Ijodkorlar tabiat tasviri orqali muayyan mazmuni ifodalab, o'quvchi ongiga assosativlik orqali ma'lum fikr bera olishi bu o'ziga xos badiiy mahoratni ko'rsatuvchi muhim jihatlardan biri

sanaladi. Bobur ruboiylarini tadqiq etgan atoqli olim Ibrohim Haqqulov “Ruboiy tabiatiga xos yetakchi xususiyat falsafiylik. Ruboiy shoirdan ko‘proq falsafiy mushohadalar yuritishni konkret masalaning falsafiy asoslariga o‘quvchi diqqatini tortishni talab qiladi. Ruboiynavis shoir inson taqdiri va dunyo hodisalarini baholash tom ma’nodagi mutafakkir sifatida hukm yuritishi shart”³⁵ – deb yozadi. Shafoat Rahmatulla Termiziyning ruboiylarga yaqin turuvchi to‘rtliklari falsafiy mazmun kasb etgani bilan ham ahamiyatlidir.

Oqimda shiddatu qirg‘oqda bardosh,
Ohusi hurkagu tog‘ o‘zi yuvosh.
Tuganmas qo‘shig‘in to‘xtatmas hech suv,
Buzmaydi abadiy sukutini tosh.

Shoirning mazkur “Muvozanat” to‘rtligida tabiat manzaralari tasvirlanib, undagi bir nechta qarama-qarshilik ifodasi she’rning mohiyatini yoritgan: 1) oqim shiddatli – qirg‘oq bardoshli, ohu hurkak – tog‘ yuvosh. Suvning har qanday joyda oqishida jildiroq ovoz keladi va bu ovoz shoir nazdida to‘xtamaydi. Unga qarama-qarshilik sifatida shoir toshning abadiy sukutini keltirib o‘tadi. Demak, muvozanat tabiatning o‘zida qarama-qarshiliklar bilan namoyon bo‘larkan, inson hayotida ham mana shunday jihatlar borligi tabiat bilan uzviy bog‘liqlikda ekanini, hayot qonuniyatlari borligi ta’kidlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Шафоат Раҳматулла Термизий. Гулоб. – Термиз. – 1992. –Б.
2. Квятковский А. Поэтический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – С. 338.
3. Адабиётшунослик луғати. /Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. – Тошкент: Академнашр, 2010. – В. 339.
4. Адабий тур ва жанрлар. (тарихи ва назариясига оид). 2-жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Фан. 1992. – Б. 229-230.
5. Ҳаққулов И. Мушоҳада ёғдуси. – Тошкент: Тафаккур, 2019. – В. 17.

³⁵ Ҳаққулов И. Мушоҳада ёғдуси. – Тошкент: Тафаккур, 2019. – В. 17.

POLIMETAKRILOKROTONILIDENIMIN ASOSIDAGI IONITLARNING SORBSION XUSUSIYATLARI

Mamajonov Bahodirjon Madaminovich

Toshkent kimyo texnologiya ilmiy tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

O'zbekiston Respublikasi, Shurobozor p/b

Beknazarov Hasan Soyibnazarovich

Angren universiteti, texnika fanlari doktori, professor

O'zbekiston Respublikasi, Angren shahri

Annotatsiya. Maqolada polimetakrilokrotonilidenimin asosidagi olingan ionitning Cu^{2+} , Pb^{2+} , Cd^{2+} , Zn^{2+} va Ni^{2+} ionlariga nisbatan pH, konsentrasiya va vaqtga bo'g'liq holda adsorbsion faolligini o'rganish natijalari keltirilgan. O'rganishlar jarayonida pH diapozoni 1-6 oralig'ini, model eritmalar konsentrasiyasi 500-3000 mg/l ni, adsorbisiya kinetikasi 1 soatni tashkil etgan. Adsorbisiya izotermalari Langmuir va Freundlich modellari asosida o'rganilgan. Adsorbatlardan orasidan Cd^{2+} va Cu^{2+} ionlarining adsorbsion ko'rsatkichlari yuqoriligi aniqlandi, va mos ravishda 371 va 149 mg/g ni tashkil etgan.


Kalit so'zlar: polimetakrilokrotonilidenimin, adsorbisiya, mis, qo'rg'oshin. kadmiy, rux, nikel, ionit.

Kirish. Ionitlar (ion almashinadigan qatronlar) suvni metall ionlaridan tozalash jarayonlarida keng qo'llaniladi. Ular ion almashinuvi orqali turli ionlarni suvdan samarali ravishda olib tashlash qobiliyatiga ega. Ion almashtirgichlarning ishlash printsipi eritmadagi ionlarni qatron yuzasida joylashgan ionlar bilan almashtirishga asoslangan. Ionitlar turli moddalarni eritmalaridan samarali olib tashlash imkonini beruvchi adsorbsion xususiyatlarga ega. Ma'lumki, eritmalarining pH qiymati fizik adsorbisiya jarayonlarida koordinatsion reaksiyalarda va elektrostatik o'zaro ta'sirlarda muhim rol o'ynaydi [1]. Ion almashinuvi, har qanday geterogen jarayon kabi, ionlarning interfaza chegarasiga va undan ko'chishi hisobiga amalga oshiriladi; ya'ni kimyoviy reaksiyaning o'zini, material ichidagi diffuziyani va atrofdagi eritmadagi diffuziyani ion almashinuvi deb hisoblash kerak [2]. Ion almashtirgichdan chiqib ketadigan har qanday qarshi ion ekvivalent miqdordagi boshqa qarshi ionlar bilan almashinadi. Bu elektr neytralligi talabining natijasidir. Qarama-qarshi ion fazalararo chegarani kesib o'tganda, ikki faza o'rtasida elektr potentsiali hosil bo'ladi [3]. Bu potentsial boshqa qarama-qarshi ionning teskari yo'nalishdagi harakati (ion almashinuvi) yoki ionning xuddi shu yo'nalishdagi harakati bilan qoplanishi kerak.

Tajriba qismi. Polimetakrilokrotonilidenimin (PMKI) tarkibidagi karbonil va imino guruhlar kabi gidrofil guruhlar uning eritmasining pH qiymatiga ta'sir qiladi.

pH qiymatining metall ionlarining adsorbsiyasiga ta'siri suyultirilgan xlorid kislotasi va kaliy gidroksid eritmasi qo'shilgan eritmalarining dastlabki pH qiymatini o'zgartirish orqali o'rganildi. Natijalar 1-rasmda ko'rsatilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, pH qiymatining oshishi bilan Pb^{2+} va Co^{2+} ning adsorbsiyasi biroz yaxshilandi. Boshqa metall ionlarining natijalariga mos ravishda, turli xil metall ionlarining barcha adsorbsion qobiliyatlari past pH qiymatlarida ayniqsa past edi. Bu PMKI qatronidagi cheklangan faol adsorbsiya joylari uchun H_3O^+ ionlari va metall ionlari o'rtasidagi raqobatbardosh adsorbsiya bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Biroq, pH qiymati oshishi va proton konsentratsiyasining pasayishi bilan adsorbsion imkoniyatlar sezilarli darajada oshdi. Tegishli diapazonda pH qiymatlari oshganda, qatronlar va metall ionlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchayib, adsorbsiya qobiliyatini oshirdi. Qatronlar maksimal adsorbsion qobiliyatini ko'rsatgan optimal pH qiymatlari Cu^{2+} , Cd^{2+} uchun 5,0 va Mn^{2+} , Co^{2+} , Ni^{2+} , Cr^{3+} , Pb^{2+} va Zn^{2+} uchun 6,0 edi. Cu^{2+} , Cd^{2+} va Pb^{2+} uchun qatron adsorbsiyasining optimal pH qiymati taxminan 5,0 ni tashkil etdi, bu Pb^{2+} bilan ozgina farqni hisobga olmaganda, bizning natijamizga mos keldi. Bu turli xil tuzilmalar va qatronlar turlariga bog'liq bo'lishi mumkin.



1-rasm. pH ning 1 soatda $Co(II)$, $Cu(II)$, $Pb(II)$ va $Zn(II)$ metall ionlarining adsorbsiyasiga ta'siri.

1-jadval

Adsorbsiyadan oldin va keyin qatronidagi infraqizildagi $C=O$ cho'zilgan to'lqin sohalari.

Ionit va metall ionlari	PMKI	$Cu(II)$	$Zn(II)$	$Co(II)$	$Pb(II)$
Assimetrik cho'zilish (cm^{-1})	1651	1589	1612	1621	1639
Simmetrik cho'zilish (cm^{-1})	1400	1400	1400	1400	1400

Adsorbsiya mexanizmini o'rganish uchun FT-IR spektrlari adsorbsiyalangan metall ionlari bo'lgan va ularsiz PMKI qatroni uchun o'lchandi. Qatronning karbon

guruhlari ikki xil cho'qqini namoyon qildi: 1650 sm^{-1} atrofida assimetrik cho'zilish tasmasi va 1400 sm^{-1} atrofida kuchsizroq simmetrik cho'zilish to'liq uzunligini. Erkin karbonil bog'i ($\text{C}=\text{O}$, 1650 sm^{-1}) uchun adsorbsion sohalarning siljishi qattiq fazadagi ligand va har bir metall ionlari orasidagi bog'lanish kovalent yoki ionli bo'lganligini ko'rsatishi mumkin. Molekuladagi karbonil guruhlarida siljish qanchalik baland bo'lsa, kovalent bog'lanishlar shunchalik ko'p bo'ladi. Kovalent bog'lar N va O atomlari va metall ionlari tomonidan hosil bo'ladi. Infraqizil ma'lumotlar 1-jadvalda ko'rsatilgan, bu ma'lumot haqiqiy vaziyatga tushunturushga yordam beradi. Karbonil bog'lanishning adsorbsion zonasi ($\text{C}=\text{O}$, 1651 sm^{-1}) turli ionlar bilan o'zaro ta'sir qilish natijasida boshqa sohaga siljiydi. Natijalarga ko'ra, Cu(II) ionlari kovalent bog'lanish orqali azot guruhiga eng kuchli adsorbsiyani ko'rsatdi va Pd(II) ning azot guruhiga adsorbsiyasi eng kuchsiz bo'ldi. Infraqizil ma'lumotlar avvalgi tajribalardagi 1 g qatron $\text{Cu}^{2+} > \text{Zn}^{2+} > \text{Co}^{2+} > \text{Pb}^{2+}$ adsorbsiyasining kamayish tartibiga mos keldi. Natijada, har bir metall ionlari orasidagi adsorbsion sig'imdagi farqni tushuntirish uchun qatronga karbonil guruhi va metall ionlari orasidagi kovalent bog'lanish xususiyatlaridan foydalaniladi. Biroq Cu(II) ning adsorbsion mexanizmi boshqalardan farq qiladi. Ushbu tizimda karbonil bog'lanishning adsorbsion sohasi ($\text{C}=\text{O}$, 1651 sm^{-1}) Co(II) adsorbsiyasidan keyin ozgina o'zgarishlarni ko'rsatadi, bu qatron va Co(II) tarkibidagi N va O atomlarining sezilarli darajada muvofiqlashtirilgan xatti-harakatlarini ko'rsatmasligini ko'rsatadi. Buning sababi shundaki, PMKI qatronida qattiqroq Lyuis ishqoriy muhiti bo'lib, u PMKI dagi koordinasion bog'lanishga o'xshamaydi, shuning uchun Co(II) (Lyuis kislotasi) Lyuis ishqoridagi N va O atomlari bilan muvofiqlasha olmaydi. Va bizning tizimimizda, IQ spektrlari natijalariga ko'ra, Cu(II) ionlari kovalent bog'lanish orqali karbonil guruhiga eng kuchli yaqinlikni ko'rsatdi, bu karbonil bog'ining adsorbsion sohasining kattaroq siljishini aks etdi ($\text{C}=\text{O}$, 1651 sm^{-1}) adsorbsiyadan keyin. Bundan tashqari, biz qatronni qayta ishlatish imkoniyatini ham o'rganib chiqdik. PMKI qatroni suyultirilgan suvli xlorid kislotasi (1%) qo'shigandan so'ng, metall ionlarini adsorbsiyalash uchun qayta ishlatilishi mumkin. Tajribani o'tkazish uchun Cu^{2+} ionlari misol sifatida ishlatilgan va biz qatronni sakkiz martadan ko'proq qayta ishlatish mumkinligini va hali ham bir xil adsorbsiya tezligiga ega ekanligini aniqladik.


Shunday qilib, PMKI xelatlovchi qatroni radikal polimerizatsiya jarayonida N-metakriloilkrotonilideniminni o'zaro bog'lash orqali tayyorlangan. PMKI qatronining asosiy funktsional guruhlari, azot va kislorodni o'z ichiga olgan guruh va karbonil guruhi FT-IR spektroskopiyasi bilan tasdiqlangan. Qatronlar Co(II), Cu(II), Pb(II) va Zn(II) kabi to'rt turdagi metall ionlari uchun yaxshi adsorbsiya qobiliyatiga ega. Ular orasida Cu(II) va Zn(II) ning adsorbsion sig'implari yuqoriroq bo'lib, ular 1 g smolaga mos ravishda 368 va 150 mg metall ionlarini tashkil etdi.

Ushbu bo'limda biz N-metakriloilkrotonilidenimin (MKI) monomerini an'anaviy radikal polimerizatsiya jarayonida xelatlovchi qatron hosil qilish tadqiqotlarini olib bordik. Olingan qatronlar Cu^{2+} , Pb^{2+} , Cd^{2+} , Zn^{2+} va Ni^{2+} kabi bir nechta og'ir metal ionlarini o'zlashtirish uchun ishlatilgan. Olingan shunga o'xshash natijalardan biz ushbu qatron Cd^{2+} uchun yuqori adsorbsiya qobiliyatini va Zn^{2+} va Cd^{2+} uchun yuqori selektivlikni ko'rsatadi degan xulosaga keldik.

Yuqorida keltirilganidek PMKI xelatlovchi qatroni N-metakriloilkrotonilidenimin asosida $70\text{ }^\circ\text{C}$ da radikal polimerizatsiya orqali sintez qilindi.

Dastlabki va yakuniy metall ionlari konsentratsiyasi deyteriyli bilan korreksiyalanuvchi chiroqlar jihozlangan, Hallow chiroq katod chiroq va atsetilen havо mash'alasi bilan jihozlangan UNICAM 930 tipidagi olovli atom adsorbsion spektrometri yordamida aniqlandi. C, H va N uchun elementar tahlil EA1110-CHNS elementar analizatorida amalga oshirildi.

Adsorbsiyaning optimal vaqtini aniqlash uchun turli xil metall ionlari adsorbsiya qobiliyati vaqt o'tishi bilan o'lchandi. 2-rasmda PMKI asosida Cd(II), Cu(II), Ni(II), Pb(II) va Zn(II) ionlarining yutilishiga reaksiya vaqtining ta'siri ko'rsatilgan. Yutilgan metall ionlari vaqt o'tishi bilan ko'paydi va taxminan 30 daqiqadan so'ng muvozanatga erishdi. 2-rasmda ko'rsatilganidek, dastlabki 6 daqiqada adsorbsiya tezligi yuqori bo'lgan, bu PMKI qatronida xelatlash guruhlari (-N=) almashinuv qobiliyatiga bog'liq edi. Biroq, adsorbsiyalangan metall ionlarining miqdori maksimal qiymatga yetdi va keyingi davrda doimiy bo'lib qoldi, bu adsorbsion muvozanatni anglatadi. Ko'rinib turibdiki, eng yuqori yutilish Cd(II) adsorbsiyasi uchun ko'rsatilgan. Har bir metall ioni uchun qatronning maksimal adsorbsion qobiliyati 2-jadvalda ko'rsatilgan. Jadvalda keltirilgan qiymatlardan qatronning Cd(II) ga boshqa har qanday ionlarga qaraganda ancha yuqori yaqinligi bor degan xulosaga kelish mumkun.



2-rasm. PMKI yordamida turli metall ionlarining Cd(II), Cu(II), Ni(II), Pb(II) va Zn(II) sorbsiyasiga vaqtning ta'siri (boshlang'ich metall ionlari konsentratsiyasi: 3000 mg/l (100) ml), qatron miqdori: 1 g, harorat: $25 \pm 1\text{ }^\circ\text{C}$, aralashtirish vaqti: 1 soat)


2-jadval

PMKI ning metall ionlari uchun adsorbsion qobiliyati

Adsorbsion hajmi	Cd(II)	Cu(II)	Ni(II)	Zn(II)	Pb(II)
mmol/g	3,34	2,28	1,73	1,56	0,76
mg/g	371,2	149,3	101,6	94,7	141,1

Dastlabki metall konsentratsiyasi va adsorbsion izotermlarning ta'siri. Aslida, metall ionlarining adsorbsiyasi metallning dastlabki konsentratsiyasiga va qatronlar miqdoriga juda bog'liq. Shuning uchun biz metall ionlarining dastlabki konsentratsiyasini o'zgartirdik va adsorbsion muvozanat sharoitlarini o'rganish uchun qatron miqdorini doimiy ravishda ushlab turdik. Metall ionlarining dastlabki konsentratsiyasi mos ravishda 500, 1000, 1500, 2000, 2500 va 3000 mg/l (10 ml) va qatron og'irligi barcha eritmalarda 100 mg ni tashkil etdi. Adsorbsion tajribalar optimal pH sharoitida amalga oshirildi va reaksiya vaqti 1 soat etib belgilandi. 3-rasmda ko'rsatilganidek, metallning adsorbsion qobiliyati, adsorbentning to'yingan adsorbsiyasiga etgunga qadar, dastlabki metall konsentratsiyasining ortishi bilan sezilarli darajada oshdi. Bu massaviy o'tishlarning yuqori harakatlantiruvchi kuchi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, bir xil miqdordagi adsorbent uchun dastlabki konsentratsiya qanchalik yuqori bo'lsa, adsorbsiya muvozanatiga tezroq erishiladi [4].

Adsorbsion izoterma adsorbentning massadagi konsentratsiyasi va fazalar chegarasidagi adsorbsiyalangan metall ionlari soni o'rtasidagi bog'liqlik sifatida aniqlanadi. Shuning uchun biz natijalarni to'g'ri ko'rsata oladigan va loyihalash maqsadlarida ishlatilishi mumkin bo'lgan tenglama hosil qilish uchun sorbsiya izotermlarini tahlil qilishimiz kerak edi. Eksperimental ma'lumotlar ikkita mashhur adsorbsion modellar asosida baholandi, ya'ni Langmuir va Freundlich modellari.



3-rasm: PMKI qatroni bilan metall ionlarining adsorbsiyasiga dastlabki konsentratsiyaning ta'siri (qatron miqdori: 100 mg, harorat: 25 ± 1 °C, aralashtirish vaqti: 1 soat).

Lengmyur izotermalari metall ionlarining turli adsorbentlar tomonidan sorbsiyasini tavsiflash va solishtirish uchun foydali vositadir. Bu izotermalar adsorbent q_e massasi birligiga yutilgan metall miqdori va hajmiy suyuq fazadagi C_e dagi adsorbatning muvozanat konsentratsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlaydi.

Langmuir izoterma quyidagicha ifodalanishi mumkin

$$\frac{1}{q_e} = \frac{1}{Q^0} + \frac{1}{bQ^0C_e}$$

Bu yerda q_e - adsorbent yuzasida adsorbsiyalangan erigan moddaning miqdori (mmol/g), C_e - eritmadagi ionlarning muvozanat konsentratsiyasi (mmol/l), Q^0 - bir qatlamni qoplagandagi maksimal sirt zichligi, b - Lengmyur. adsorbsiya doimiysi (l/mmol). $1/q_e$ ga nisbatan $1/C_e$ bo'lgan chizmalar to'g'ri chiziq berdi va Q^0 va b qiymatlarini mos ravishda uchastkalarining kesishmasi va qiyaligidan hisoblab topildi. Dastlabki konsentratsiyalarning og'ir metallarning PMKI adsorbsiyasiga ta'siridan olingan eksperimental ma'lumotlar ushbu tenglama yordamida ham baholandi, tegishli konstantalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-Jadval


Turli metall ionlarining ionitlar tomonidan adsorbsiyasi uchun Langmuir izoterma konstantalari.

Metall	Langmuir izoterma parametrlari		
	Q^0 (mmol/g)	b (l/mmol)	R^2
Cd	0,00334	1,25	0,9856
Cu	0,00228	6,88	0,9723
Ni	0,00173	0,85	0,9722
Zn	0,00156	3,85	0,9812
Pb	0,00076	1,27	0,9827

Qatronlar miqdorining ion almashinuviga ta'siri. Yuqorida aytib o'tilganidek, metall ionlarining adsorbsiyasi qatronlar miqdoriga juda bog'liq. 3-rasmda og'ir metall ionlarini eritmadan PMKI qatroni miqdoriga qarab ularning optimal pH qiymatlarida ajralishi ko'rsatilgan. Qatronlar miqdori 0,0 dan 1,2 g gacha, reaksiya vaqti doimiyligi esa 1 soatni tashkil etdi. Natijalardan ma'lum bo'ldiki, 3000 mg/l bir xil boshlang'ich konsentratsiyada qatron miqdori ortishi bilan metallni yutishi ham ortib boradi. Ushbu ionlar orasida Pb(II) eng kam miqdordagi qatronlar yordamida maksimal adsorbsiya qobiliyatini (75%) ko'rsatdi. Bu hodisa Pb og'ir metall bo'lganligi sababli bo'lishi mumkin, uning yadrosi atom elektronlari bilan bog'lanish qobiliyati zaifroq, shuning uchun Pb va qatronlar orasidagi ion almashinuvi tezroq bo'ladi. Xuddi shunday, Cd ionlarining adsorbsion qobiliyati taxminan 48% ga yetdi, bu Cd va qatronlar o'rtasida


barqaror bog'lanishlar hosil bo'lishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, natijada adsorbsion muvozanat yuzaga kelladi.

Zn^{2+} va Ni^{2+} kabi boshqa metall ionlarida ham xuddi shunday adsorbsiya tezligini ko'rsatdi. Biroq, qatronlar miqdori oshib borishi bilan metallni yutish tezligi sekinlashdi. Ruxsat etilgan boshlang'ich konsentratsiyali dozalash idishida sorbent dozasi oshishi bilan suvli fazadan ajralgan metall ionlarining ulushi ortib borayotganligi sababli, 4-rasmdagi egri chiziqlar 0 dan 1,2 g gacha bo'lgan asimptotik qiymatlarga yaqinlashadi. Sorbent miqdori oshirilganda muvozanat adsorbsiyasiga erishish uchun kamroq vaqt ketadi. Shuning uchun biz adsorbentning dozasi yutilgan metall ionlarining miqdori va tezligini oshiradi, ammo almashinuv samaradorligini pasaytiradi, degan xulosaga keldik. Bu PMKI ning ion almashish qobiliyati to'yinmaganligi sababli sodir bo'ldi.



4-rasm. Qatronlar miqdorining PMKI adsorbsion muvozanatiga ta'siri (boshlang'ich konsentratsiya: 3000 mg, harorat: 25 + 1°C, aralashtirish vaqti: 1 soat).

Pastroq xelyatsiya zichligi bilan bog'liq bo'lgan oz miqdordagi adsorbent, adsorbent samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, adsorbsiya tezligini, kutilgandek, bir xil boshlang'ich metall ion konsentratsiyasi uchun kamaytirish mumkin, adsorbent dozasi oshirilganda muvozanat konsentratsiyasi pasayadi. Buning sababi shundaki, ortib borayotgan adsorbent qattiq konsentratsiya uchun kattaroq sirt maydoni yoki xelatlash joyini ta'minlaydi.



5-rasm. PMKI smola yordamida metallarning adsorbsiyasiga haroratning ta'siri (boshlang'ich konsentratsiyasi: 3000 mg/l (10 ml), smola miqdori: 100 mg, aralashtirish vaqti: 1 soat).

PMKI qatronida og'ir metallar ionlarining adsorbsiyasiga haroratning ta'siri 5-rasmda ko'rsatilgan. Odatdagi tajribada 3000 mg/l boshlang'ich konsentratsiyasi va 100 mg qatronli metall ionlarini o'z ichiga olgan 10 ml suvli eritma optimal pH qiymatida saqlangan. Tajribadagi haroratlar mos ravishda 288, 303, 318 va 333 K. Bu bosqichda haroratning metall va smola o'rtasidagi ion almashinuvining muvozanat konstantasiga ta'siri o'rganildi. 5-rasmdan metall ionlarining adsorbsion sig'imi harorat oshishi bilan bir oz ortib, adsorbsiyaning endotermik xususiyatini ko'rsatishi kuzatildi. Bu metall ionlarining PMKI qatroni bilan ekzotermik xelyatsiya reaksiyalari bilan bog'liq. Tajribalardagi muvozanat konstantalari harorat oshishi bilan ortdi. PMKI strukturasi karbonil guruhlari barcha harorat darajalarida qisman protonlanadi, bu esa yuqori haroratlarda metallning adsorbsion qobiliyatining biroz oshishiga olib keladi. Bu yerda faqat ion almashinadigan termodinamika ishtirok etadi; haroratning adsorbsiya dinamikasiga ta'siri nisbatan kichik. Xelatsiya jarayoni eritmada metall ionlarini olib tashlashning asosiy mexanizmi bo'lib, asosiy jarayon ion joyi uchun raqobatbardosh ionlarni jalb qilish hisoblanadi.

Xulosa. Qatronlar Cd (II), Cu (II), Ni (II), Pb (II) va Zn (II) kabi besh turdagi metall ionlari uchun yaxshi adsorbsiya qobiliyatiga ega. Ular orasida Cd (II) va Cu (II) ning adsorbsion sig'implari yuqoriroq bo'lib, 1 g smolaga mos ravishda 371 va 149 mg metall ionlarini tashkil etdi. Metall ionlarining N va O ni o'z ichiga olgan funktsional guruhlari bilan o'zaro ta'siri qatron tarkibidagi xelatlash guruhlari soni ortishi bilan kovalent bog'lanishdan ionli bog'lanishga o'zgaradi. Adsorbsiya darajasi dastlabki 6 daqiqada yuqori bo'ldi va keyinchalik to'g'irlandi. Eksperimental ma'lumotlarga asosan, biz PMKI xelat hosil qiluvchi qatroni oqava suvdagi og'ir metall ionlarining ko'p turlarini yutish uchun arzon adsorbent sifatida ishlatilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kadirvelu, K., Goel, J., 2004. Ion Exchange and Inorganic Adsorption, in: Water Encyclopedia. Wiley, pp. 490–496.
2. Mamajonov B., Beknazarov H.S., Nomozov A studying nitrogen adsorption to determine the porosity of the synthesis sorbent // AMERICAN Journal of Engineering, Mechanics and Architecture Volume 01, Issue 10, 2023. -2023.
3. Мамажонов Б.М., Бекназаров Х.С., Джалилов А.Т. Сорбционные свойства новой ионообменной смолы на основе полиметакрилоилкротонилиденимина // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2020. № 8(77). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/10618>
4. Мамажонов Б.М., Бекназаров Х.С., Джалилов А.Т. Синтез и изучение адсорбционных свойств полиметилметакрилоил-кротонилиденимина // Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. 2020. № 8 (74). URL: <https://7universum.com/ru/nature/archive/item/10582>

O‘ZBEKISTON VA XORIJIY DAVLATLARDA BELBOG‘LI KURASH SPORT TURINI OMMALASHTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR

Davletova Ullijon Sapavoy qizi

Urganch Davlat Pedagogika Instituti magistranti

O‘zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati

zulfiyaxonim2022@e-mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda Belbog‘li kurash sport turini ommalashtirishda qilinilayotgan ishlar, Xiva shahrida Xalqaro Etnosport doirasida Belbog‘li kurash bo‘yicha Xalqaro turnirda sportchilarimizning yuqori natijalarni egallaganliklari to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Belbog‘li kurash, jismoniy tarbiya, sport, Etnosport, sportchi, sovrindor.

Abstract: This article discusses the work being done to popularize the sport of belt wrestling in Uzbekistan, as well as the high results of our athletes in the international tournament on belt wrestling in Khiva as part of the International Ethnosport.

Keywords: Belt wrestling, physical education, sport, ethnosport, athlete, prize winner.

Аннотация: В данной статье рассматривается проводимая работа по популяризации борьбы на поясах в Узбекистане, а также высокие результаты наших спортсменов на международном турнире по борьбе на поясах в Хиве в рамках Международного этноспорта.

Ключевые слова: Борьба на поясах, физическое воспитание, спорт, этноспорт, спортсмен, призёр.

O‘zbek milliy sport turlaridan biri – belbog‘li kurashdir. Belbog‘li kurash juda qadimiy sport turlaridan biridir, u milloddan avvalgi 2-3 asrlarda paydo bo‘lgan va u hozirgacha rivojlanib keladi. U Farg‘ona vodiysi va unga tutash hududlarda, Toshkent viloyatida keng tarqalgan. Azal-azaldan belbog‘li kurash bo‘yicha xalq sayllarida, to‘y-tomoshalarda musobaqalar tashkil etilgan. Bu bellashuvlarda kuragi yerga tegmagan polvon-kurashchilar yurtimiz dovrug‘iga dovrug‘ qo‘shganlar.. Belbog‘li kurashning ko‘p javhalari o‘zbek xalq milliy kurashiga o‘xshab ketadi, lekin bu sport turida sportchilar asosan belbog‘ orqali kurashadilar. Asosan bu sport turi ikki kishi o‘rtasida amalga oshiriladi. Belbog‘li kurashning asosiy kiyimlariga kurashish uchun yaktak va belbog‘ kiradi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda ko‘pgina musobaqalar o‘tkaziladi masalan: O‘zbekiston chempionati, Vodiy kubogi va boshqalar, bular O‘zbekiston Belbog‘li kurash federatsiyasi qo‘l ostida o‘tkaziladi.

ВАРИАНТИ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ: ОБМЕН ИНФОРМАЦИЕЙ В РЕЖИМЕ РЕАЛЬНОГО ВРЕМЕНИ И В РЕЖИМЕ ОТЛОЖЕННОЙ ПЕРЕДАЧИ МЕЖДУ УЧАСТНИКАМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Ядгарова Лола Джалоловна

БУХГУ, Старший преподаватель кафедры информационных технологий

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности дистанционного обучения и онлайн-обучение как его современная и самая популярная разновидность. На ряде примеров описаны организационные формы современного компьютеризированного процесса обучения. Это также обзоры роли и места современных информационных и коммуникационных технологий в системе образования.

Ключевые слова: онлайн - обучение, онлайн-курсы, видео лекции, дистанционное обучение, студент ориентированное обучение, инновации

Массовый перевод учебного процесса образовательными организациями на дистанционный режим в период пандемии позволил практически каждому участника получить новый опыт, дать собственную оценку возможностям электронного обучения и дистанционных образовательных технологий, сравнить с традиционным обучением.

Анализ деятельности образовательных учреждений дистанционного образования показал, что в настоящее время в дистанционном обучении наиболее широко используются информационно-рецептивные и репродуктивные методы обучения, наряду с проблемными. Методы преподавания и организация дистанционного обучения могут быть совершенно разными в зависимости от выбора обучающихся.

Если быть точнее, то все виды обучения (как онлайн, так и офлайн) можно разделить на две большие группы: синхронные и асинхронные. Это деление основано, как следует из названия, на синхронизации получения и передачи информации между субъектами и объектами взаимодействия [2, с. 1371-1373].

Синхронное обучение — это любой тип обучения, происходящий в режиме реального времени, когда группа людей обучается одновременно. Хотя обучение происходит в одно и то же время, учащимся не обязательно находиться там лично или даже в одном и том же месте. Синхронное обучение позволяет учащимся задавать вопросы и получать ответы на месте, а также свободно сотрудничать со своими сверстниками.

Асинхронное обучение — это когда учащиеся имеют возможность выполнять задания курса в любое удобное время. Учебные материалы – это записанные видео лекции, презентации, конспекты, учебники, схемы, тесты и многое другое. Все материалы подготавливаются преподавателем заранее, а студенты самостоятельно разрабатывают индивидуальный график. Общение между студентами и преподавателями осуществляется посредством электронной почты, мессенджеров или благодаря встроенным в платформу инструментам: через чаты и форумы.

Синхронное и асинхронное обучение: плюсы и минусы

При сравнении синхронного и асинхронного обучения оба имеют свои преимущества и недостатки; то, что может понравиться одному ученику, может не понравиться другому.

Плюсы синхронного обучения:

- ✓ учащиеся могут легко взаимодействовать с преподавателями и другими учениками, что делает возможным групповые занятия;
- ✓ синхронное обучение происходит в режиме реального времени, поэтому учащиеся могут получить немедленную обратную связь. Идеями и мнениями можно также быстро поделиться с другими учениками;
- ✓ и если у ваших учеников возникают проблемы с прохождением курса, что-то непонятно или трудно усваивается, синхронное обучение позволяет им задавать вопросы, получать мгновенные ответы, мотивацию и помощь преподавателя.

Минусы синхронного обучения:

- ✓ учащиеся должны быть онлайн в определенное время, и поэтому их обучение должно соответствовать определенному учебному графику. Ученики не могут получить доступ к контенту, где и когда им хочется. Чтобы обеспечить большую гибкость, вы можете предоставить запись вебинара через [LMS «АнтиТренинги»](#), чтобы в случае пропуска встречи ученики смогли восполнить пробелы;
- ✓ из-за групповой динамики синхронного обучения в реальном времени некоторые учащиеся могут чувствовать, что они не получают необходимого индивидуального внимания. Это становится особенно актуально, если есть какая-то часть обучения, которую они плохо понимают. Чтобы обойти это, попробуйте отслеживать успеваемость ваших учеников, выделяя время в период обучения для индивидуальных или групповых вопросов и ответов;
- ✓ эффективность того, насколько хорошо ваши ученики понимают содержание курса, зависит больше от качества преподавателя, чем от самих учащихся. Поэтому убедитесь, что ваши инструкторы прошли соответствующую подготовку, чтобы они были полностью готовы к своей роли. Требование к

преподавателям планировать свои занятия заранее также гарантирует, что они обеспечат отличное обучение вашим ученикам.

Преимущества асинхронного обучения:

✓ оно обеспечивает большую гибкость. Хотя обычно есть некий дедлайн, но учащиеся могут обучаться в своем собственном темпе и получить доступ к курсу в любое время и из любого места;

✓ это экономичный способ обучения учащихся, которые живут в разных местах. Ведь они могут проходить курсы независимо от часового пояса или местоположения;

✓ при асинхронном обучении у учащихся появляется значительно больше времени для обдумывания материала, который они изучают, а это означает, что они усвоят его более тщательно;

Недостатки асинхронного обучения:

✓ хотя учащиеся могут иметь доступ к преподавателю, контакт в таком типе обучения может быть ограничен. Ответы на запросы могут быть даны не сразу (например, учащимся может потребоваться дождаться ответа на электронное письмо). Использование личных чатов на «Анти Тренингах» поможет сделать общение преподавателя и ученика максимально простым и быстрым;

✓ отсутствие взаимодействия с преподавателями и другими учениками заставляет некоторых людей чувствовать себя изолированными. Это может привести к снижению мотивации и вовлеченности в обучение. Сосредоточьтесь на создании увлекательного содержания курса, а групповые чаты на «Анти Тренингах» позволят ученикам общаться друг с другом и объединяться в группы;

✓ ученикам, которые проходят асинхронное обучение, необходима самодисциплина и сосредоточенность, чтобы успешно завершить необходимый курс. Использование такого инструмента, как [геймификация](#), помогает поддерживать интерес ваших учеников.

В конечном счете, метод обучения, который вы выберете для своих студентов, будет зависеть от ряда факторов – целей обучения, типа контента курса, который вы создаете, того, как вы проводите обучение, и доступности ваших учеников. Однако если у вас есть ресурсы, использование как синхронного, так и асинхронного обучения является выигрышным вариантом.

Преимущества и недостатки дистанционного обучения

Главным преимуществом дистанционного обучения является удобство этого формата для всех участников образовательного процесса. Репетитор может одновременно обучать сотни людей, находясь дома, а ученик самостоятельно выбирает время и место занятий. Дистанционное обучение, по сравнению с

традиционным, значительно сокращает ежедневные трудовые затраты, необходимые для оплаты проезда и поездок.

Также стоит отметить, что стоимость дистанционного обучения зачастую ниже, поскольку нет необходимости платить за аренду, коммунальные услуги, учитывать затраты на организацию занятий и покупку учебных материалов, таких как книги, пособия, рабочие тетради и так далее. Дистанционное обучение помогает постоянно совершенствовать свои навыки, совмещать работу и учебу, работать с разнообразными источниками информации. [4, стр. 456–471]

Конечно, минусов у такого формата обучения гораздо меньше, чем плюсов, но для некоторых они могут стать практически непреодолимым препятствием. Дистанционное обучение требует высокого уровня самоорганизации и регулярной само-мотивации. Без этих качеств невозможно двигаться вперед и достигать поставленных целей.

Согласно исследованиям, технологии, связанные с синхронным и асинхронным обучением, могут улучшить качество взаимодействия между учениками и преподавателями, повысить вовлеченность учащихся и улучшить результаты обучения.[4]

Выводы. В конечном счете, метод обучения, который вы выберете для своих студентов, будет зависеть от ряда факторов: целей обучения, типа контента курса, который вы создаете, способа проведения обучения и доступности для ваших студентов. Однако, если у вас есть ресурсы, использование как синхронного, так и асинхронного обучения является выигрышным вариантом. Например, создание курса, который в основном является асинхронным, с дополнительными вебинарами, запланированными на разные дни и время, гарантирует, что студенты получат дополнительную выгоду от взаимодействия друг с другом и преподавателями. Кроме того, смешанное обучение — это еще один вариант, который поддерживает возможности как синхронного, так и асинхронного обучения. Разнообразие – лучшее решение. Особенно, если вы хотите максимально вовлечь учащихся в процесс обучения, сочетать разные формы и типы содержания. Сочетание таких элементов, как видео, текст и изображения, наверняка заинтересует ваших учеников.

Список использованной литературы:

1. Дистанционное образование: зависимость качества от формы обучения / В. В. Токмянин . — Текст: непосредственный // Теория и практика образования в элитном мире: материалы I Междунар . науч. конф . (г. Санкт-Петербург, февраль 2012 г.). — Т. 2. — Санкт-Петербург:Реноме, 2012. — 370-372 с.

2. Моделирование асинхронного обучения / Т. И. Краснова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2015. — № 11 (91). — 1371-1373 гг.

3.Сун, Х.Ю., Хван, Г.Дж., и Чанг, Ю.К. (2016). Разработка мобильной системы обучения на основе совместной стратегии постановки задач. Интерактивная среда обучения, 24(3), 456–471.

4.Ядгарова Л.Д., Файзиева Н.Б. Специфика и структура педагогического процесса // Ученый XXI века, международный научный журнал №11(24), 2016. С.44-45.

5.Атаева Г.И., Ядгарова Л.Д. Оценка прикладных свойств обучающей платформы MOODLE в Бухарском государственном университете // Universum:технические науки. Научный журнал, часть 1. №6(75), 2020. С.30-32.

6.Ядгарова Л.Д., Эргашева С.Б. Способы использования интерактивных методов в образовательном процессе // Academy № 9(60), 2020. С.11-12.

7.Ядгарова Л.Д., Эргашева С.Б. Требования к тестовым заданиям в электронных учебниках // Проблемы педагогики, научно-методический журнал. №8(56). 2020. С.36-39.

8.Ядгарова Л.Д., Мурадова Г.Б. Сложности перевода речевые стили литературного языка // Academy № 12(51), 2019. С.63-65.

9.Ядгарова Л.Д., Нуруллаева Н. Методика преподавания музыки в школе // Ученый XXI века, международный научный журнал №41(51), апрель 2019. С.24-25.

ОНА ТИЛИ ФАНИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ АДАБИЙ ТАҲЛИЛ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ПЕДАГОГИК МУАММОЛАР

Мусурмонкулова Ойсулув Юлбековна

Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили
ва адабиёти университети “Ўзбек тили ва адабиёти”
кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Она тили таълимида ўқувчиларнинг ижтимоий ҳаёт фаолиятига тайёрлашдаги ўрни муҳим ҳисобланиб, ўқувчиларда коммуникацион кўникмалар ҳосил қилшда адабий таҳлил муҳим ҳисобланади, Мақолада она тили фанида она тили фанида ўқувчиларнинг адабий таҳлил компетенциясини ривожлантиришда педагогик муаммолар хусусида фикр мулоҳозалар баён этилган.

Калит сўзлар: Она тили, адабий таҳлил, узлуксиз таълим, узвийлик, тилшунослик, атама (термин) билим, кўникма, малака, тушунча.

Аннотация: В образовании на родном языке важна роль в подготовке учащихся к общественной жизнедеятельности, литературный анализ важен в формировании у учащихся коммуникативных навыков, в статье излагаются размышления о педагогических проблемах в развитии литературно-аналитической компетентности учащихся в науке о родном языке.

Ключевые слова: Родной язык, литературный анализ, непрерывное образование, непрерывность, Лингвистика, термин (термин) знание, умение, квалификация, понимание.

Annotation: The role of students in preparing them for social life activities in native language education is considered important, literary analysis is important in forming communication skills in students, the article describes reasoning about pedagogical problems in developing competency of literary analysis of students in native language science.

Keywords: Native language, literary vocabulary, continuing education, continuity, linguistics, adjective (term) knowledge, skills, competence, understanding.

Республикамизда она тили фани асослари барча босқичларида ўқув муассасаларининг таълим мазмунига мос равишда муайян курслар доирасида ўргатилади. Таълим турлари орасида ўзаро алоқадорлик, боғлиқлик ва изчилликни ўрнатиш фанлар (предметлар), боблар, мавзулар, ўқув материаллари орасидаги ҳар томонлама узвийликни таъминлаш орқали амалга оширилади. Чунончи она тили фани асосларини ифодаловчи курслар(синф) ўртасида

узвийликни таъминлаш, ўқув материалларини турли бошланғич синф ўқувчиларининг ёш хусусиятларига мос тарзда танлаш, уларни маълум мантиқий кетма-кетлик, бўлимлараро узвийлик ҳамда изчиллик асосида жойлаштириш, лингводидактик ва лингвометодик асосларини таъминлаш муаммоси мавжуд.

Дунёдаги қадимий ва бой тиллардан бири бўлган ўзбек тили халқимиз учун миллий ўзлгимиз ва мустақил давлатчилик тимсоли, бебаҳо маънавий бойлик, буюк қадриятдир. Кимда-ким ўзбек тилининг бор латофатини, жозибаси ва таъсир кучини, чексиз имкониятларини ҳис қилмоқчи бўлса, мунис оналаримизнинг аллаларини, минг йиллик дostonларимизни, ўлмас мақомларимизни эшитсин, бахши ва ҳофизларимизнинг сеҳрли кўшиқларига кулоқ тутсин, ҳар биримиз давлат тилига бўлган эътиборни мустақилликка бўлган эътибор деб, давлат тилига эҳтиром ва садоқатни, она ватанга эҳтиром ва садоқат деб билишимиз, шундай қарашни ҳаётимиз қoидасига айлантиришимиз керак”³⁶ – деб таъкидлаган эди Президентмиз Шавкат Мирзиёев.

Она тил фанини самарали ўқитиш бўйича мавжуд илғор тажрибаларни атрофлича таҳлил қилиш асосида умумий ўрта таълим мактабларда ўқитиладиган она тили предметида атамалар адабий таҳлили ва узвийлиги муаммолари ўрганиш муҳим ҳисобланади.

Илм-фан, техника, санъатга ёки бирон касб-ҳунарга хос сўзлар **атамалар** деб аталади. Булар одатда бир маънони билдиради: *урғу, кесим, ундалма* ва б. **Илмий атамалар** маълум бир фан, санъат ёки техника соҳасида қўлланадиган атамалардир.

Улар икки хил усул билан ҳосил қилинади: **а) умумхалқ тилидаги сўзлардан маъносини махсуслаштириш орқали;** умумхалқ ишлатадиган сўзлар орасидан айримларининг маъноси торайиб, умумхалқ тилида бир маънони, илмий нутқда эса бошқа маънони ифодалайдиган бўлиб қолади. Бунга ўхшаган атамалар тилимизда анчагина: сўз туркумларининг номлари — *от, сифат, сон, феъл, равиш;* математикага оид атамаларнинг айримлари — *илдиз, сурат, тўплам* ва ҳ. *Феъл* сўзи умумхалқ тилида характер, феъл1-атвор маъносини, илмий тилда сўз туркуми номини билдиради. **б) бошқа тиллардан илмий тушунча учун атама олиш орқали; бошқа тиллардан сўз олиш орқали** ҳосил қилинади: *омоним, каср, тангенс, мусбат, синус, манфий* ва ҳ.

Касбий атамалар (профессионализм), номланишидан кўриниб турганидай, маълум бир касб-ҳунарга оид сўзлардир.

Ўқитувчилик касбига доир атамалар: *рейтинг, йиллик баҳо, синф журнали, педкенгаш* ва ҳ.

Тикувчилик касбига доир атамалар: *андоза, ангишвона, қатим, бичиқ, жияк қадамоқ, тугма* ва б.

³⁶ prezident.uz

Дехқончилик атамалари: *жўякни катта олмоқ, кетмон, пуштани кенг ташлаш..*

Касб-ҳунарга оид атамалар ҳам ҳунар эгаси қайси шева вакили бўлса, шу шева лексикаси таркибига киради. Чунки Бухоро ҳунарманди ишлатадиган сўз, Тошкент ҳунармандига нотаниш бўлиши мумкин.

Филология фанлари доктори Собиржон Иброҳимов ҳунармандлар тилини ўрганиб, Фарғонанинг касб-ҳунар лексикасида доир йирик китоблар яратди. Бундай сўзларни ёзувчилар асарда иштирок этаётган шахсларнинг косиб эканликларини кўрсатиш учун, услубнинг ҳамма турларида, айниқса, бадий услубда кўпроқ ишлатадилар.

Эслатма: *Атамаларни тартибга солиш ҳар бир тилда катта аҳамиятга эга. Шунинг учун атамаларни яратиш тамойиллари ва уларни тартибга солиш муаммолари билан шуғулланувчи тилшуносликнинг махсус бўлими борки, бундай бўлим атамашунослик (терминология) деб юритилади.*

Атамашуносликнинг ўрганиш бирлиги **атамалар** (терминлар)дир.

Атамаларни мумкин қадар миллийлаштириш, тилимизнинг ички имкониятларидан атамалар яратишда унумли фойдаланиш, чет тилидан кириб келган атамаларни ҳам зарур ҳолларда қабул қилиш ҳозирги атамашунослигимизнинг бош тамойили саналади. Шунинг учун ҳам ҳалқ ўртасида кенг истеъмолга бўлган *радио (овознигор эмас), аэропорт (тайёрагоҳ эмас), институт (олийгоҳ эмас), самолёт (учоқ эмас)* каби атамалар тилимизда сақлаб қолинди.

Маълум фан ёки касб-ҳунар соҳасидаги муайян бир тушунчани аниқ ифодалаш учун маъноси махсулаштирилган сўз ёки сўз бирикмаларига атама (термин) дейилади.

Атамаларни тартибга солиш ҳаракати мустақилликнинг илк даврларида турли ёсинда олиб борилди: а) рус тилидан ва бу тил орқали Европа тилларидан кириб келган атамаларнинг ўрнига араб-форс тилидан атамалар танлаш: *аэропорт ўрнига тайёрагоҳ; самолёт ўрнига тайёра; институт ўрнига олийгоҳ, раён ўрнига ноҳия, радио ўрнига овознигор, тельефон ўрнига дуровоз* каби; б) рус тилидан ва бу тил орқали Европа тилларидан кириб келган атамаларнинг ўзбек тилининг ички имкониятларини қидириб, ўзбекча муқобилларини топиш. Агар муқобили бўлмаса, бошқа тиллардан олинган атамаларни ўзбек тили фонетик қонуниятига мослаштириб қўллаш. Масалан, *акция-ҳисса, акционер-ҳиссадор, канцелярия-девоҳона, печат-муҳр, гимн-мадҳия, таможня-божхона, банк-банка, самолёт-самолёт, вертолёт-вертолёт, ракета-ракета, танк-танк, тельефон-тельефон, компьютер-компьютер* каби.

Маълумки, ҳар қандай ўқув фани муайян тушунча ва терминлар асосида ўқитилади. Ҳар бир фаннинг тушунчалари йиғиндиси шу фаннинг тушунчалари тизимини белгиласа, унинг мавжуд терминлар мажмуаси эса терминологик тизимини ташкил қилади. Қачонки ўқувчи ёки талаба тушунча ва терминларнинг мазмун-моҳиятини тўлалигича англаб етса, у ўрганилаётган фаннинг назарий асосларини яхши ўзлаштиради ва шу таълим соҳасидан берилаётган турли характердаги ўқув топшириқларини амалда бажариш малака ва кўникмаларини нисбатан тезроқ ва сифатлироқ, энг муҳими, онгли тарзда эгаллайди. Бундан маълум бўладики, термин ва тушунчалар ҳар қандай фаннинг ривожланиши ва ўзига хослиги ҳамда уни ўқитиш жараёнининг самарали кечишида муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбек тилининг изоҳли луғатида **термин** сўзи «(лотинча “терминус” - чек, чегара) *Фан, техника, касб-ҳунарнинг бирор соҳасига хос муайян бир тушунчанинг аниқ ва барқарор ифодаси бўлган сўз ёки сўз бирикмаси; атама*»³⁷; **тушунча** сўзи «1. Нарса ва ҳодисаларнинг мантиқан ажратилган муҳим белгиларини, алоқа муносабатларини умумлаштириб акс эттирувчи умумий тасаввур; тафаккур шакли. 2. Умуман, нарсалар, ҳодисалар ҳақидаги тасаввур, тушуниш. 3. Онглилик даражаси, онг. 4. Инсоннинг билим ва тасаввурлари даражаси, савия»³⁸; **атама** сўзи эса «1. Термин. 2. Умуман, ном» деб изоҳланган³⁹. Мазкур изоҳларда ўзаро яқинлик ва ўхшашликнинг мавжудлигига қарамасдан, айрим ҳолларда атама сўзи ҳар доим ҳам термин маъносига тенг тушунчани ифодамайвермаслиги аён бўлади.

«Гапнинг охирига нуқта (.), сўроқ (?), ёки ундов (!) белгиси қўйилади»⁴⁰. Мавҳум тафаккури яхши ривожланмаган кичик ёшдаги мактаб ўқувчилари юқоридаги сингари дарсликда ифодаланган маълумотга таянган ҳолда гапларни ифода мақсадига кўра дарак, сўроқ ва ундов гапларга ажратишга одатланиб қоладилар. Аслида ундов гаплар дарак, сўроқ ва буйруқ гапларни ифодалаш жараёнида ҳис-ҳаяжоннинг иштирокига кўра аниқланадиган алоҳида тури ҳисобланади. Шунингдек, бошланғич синф меъёрий ҳужжатлари, дарсликларида «гапнинг фикр билдириш мақсадига кўра турлари» юқори синфларда «ифода мақсадига кўра турлари» тарзида турли вариантларда қўлланиш ҳоллари мавжуд. Эътироф этилган тушунчаларни бевосита сўроқ ва буйруқ гапларга нисбатан қўллашга ўринсизга ўхшайди. Чунки сўроқ ва буйруқ гаплар, бизнинг назаримизда, гапнинг фикр билдириш мақсадига кўра тури бўлаолмайди.

³⁷ Ўзбек тили изоҳли луғати. Тўртинчи жилд. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2008. – 73 бет.

³⁸ Ўзбек тили изоҳли луғати. Тўртинчи жилд. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2008. – 222 бет.

³⁹ Ўзбек тили изоҳли луғати. Биринчи жилд. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2010. - 113 бет.

⁴⁰ Қосимова К. ва бошқалар. 2-синф она тили дарслиги. – Т.: “Чўлпон”, 2008. - 5-бет.

Бошланғич таълим босқичига тегишли бўлган таълим стандарти, дастур ва дарсликларда айнан бир тушунча ёки атамаларнинг юқоридаги сингари турли шаклларда ифодаланишига бир қанча мисолларни келтириш мумкин. Таълими тараққий этган давлатлар тажрибасида она тили фанига доир термин ва тушунчаларни таълим босқичининг барча (мактаб,лицей, ОЎЮ) тур ва босқичларида бир хил аташ анаънаси мавжудлигини таъкидлаш ва бу хил ёндашувни бизда ҳам амалга ошириш мақсадга мувофиқ бўлади.

Терминлар билан боғлиқ яна бир муҳим жиҳат сифатида терминларни таржима қилишда учрайдиган ҳолатларни олиш мумкин. Сўзларнинг шакл ва маъно муносабатига кўра турлари саналадиган **синоним, антоним, омоним** каби атамаларни асл ҳолича қолдириш мақсадга мувофиққа ўхшайди. Тажриба она тили фанини ўқитиш жараёнида терминларнинг таржима вариантини қўллаш ҳар доим ҳам ўзини оқламаслигини кўрсатмоқда мумкин. Масалан, **антоним** термини таржима асосида **зид маъноли сўз** сифатида олинган. Биринчидан, ўзбек тилида келди-келмади, ёз-ёзма сингари бўлишли ва бўлишсиз феъллар лексик жиҳатдан ўзаро **зид маъноли** сўзлар ҳисобланади, лекин улар **антоним** сўзлар термини талабларига жавоб бера олмайди чунки антоним сўзлар турли ўзакка эга бўлиши шарт, иккинчидан, ўқувчиларнинг ўрта таълим босқичида рус тили ва инглиз тили фанларини ўрганиш жараёнида бу терминларни қайтадан янги тушунчалар сифатида ортиқча дарс вақтини сарфлаб ўзлаштиришларининг олди олинади. Шунингдек, **шаклдош** сўзлар атамасининг омоним сўзлар ўрнида қўлланиши ҳам айрим ноқулайликларни келтириб чиқарадиган ҳолат мавжудга ўхшаб кетади. Айтайлик, кўп маъноли дарахтнинг **кўзи**, булоқнинг **кўзи**, узукнинг **кўзи** ёки кўйлакнинг **ёқаси**, жарнинг **ёқаси** каби бирикмалардаги **кўз** ва **ёқа** сўзлари ўзаро айнан бир хил шаклга эга бўлишига қарамасдан улар омоним сўзлар эмас, балки кўп маъноли сўзлар ҳисобланади. Яъни кўп маъноли сўз қанча кўчма маънога эга бўлишидан қатий назар бир бош сўздан ўсиб чиқади. Нутқимизда мавжуд кул (от), кул (феъл), ўт (от), ўт (феъл), ўт (от) сингари шаклдош сўзлар эса алоҳида сўзлар ҳисобланади. Шунингдек, “яқин маъноли”, “маънодош” атамалари ҳар доим ҳам синоним атамасига тенг келавермайди. Бундан ташқари, ҳар қандай термин тилимизнинг бойишида муҳим манба бўлиб хизмат қилишини назардан қочирмаслигимиз лозим.

Турли босқичлардаги она тили дарсликларида тушунча ва терминларнинг адабий таҳлили муаммоси билан боғлиқ ҳолатлар ўқувчиларнинг она тили ўқув предмети асосларини пухта ўзлаштиришларида маълум бир иккиланиш ва қийинчиликларни келтириб чиқариши, табиий. Барча фанларни ўзлаштиришнинг асоси ҳисобланган она тили предметига оид термин ёки тушунчаларнинг номутаносиблиги, юзаки қараганда, арзимас ҳодисадек туюлса-да, аслида муҳим таълимий ва ижтимоий аҳамиятга эга.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, ҳар бир фаннинг термин ва тушунчалар тизими шу соҳада синовдан ўтган, тасдиқланган мажмуадан иборат бўлади. Она тили таълими соҳаси термин ва тушунчаларининг барча таълим босқичлари учун ягона стандарт шакллари ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш орқали термин ва тушунчалар билан боғлиқ сунъий тўсиқларнинг бартараф этилиши ўқувчиларнинг она тили фанидан эгаллайдиган билим, кўникма ва малакалари сифатига ижобий таъсир қилади.

Адабиётлар рўйхати.

1. Lex.uz/ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги 187-сон “Умумий ўрта таълим ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида” ги қарори.
2. Икромова Р. ва бошқалар. 4-синф она тили дарслиги. – Т.: «Шарқ», 2008.
3. Ғуломов А., Неъматов Х. Она тили таълими мазмуни. - Т.: «Ўқитувчи», 1995.
4. Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиядова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. - Т.: «Янги аср авлоди». 2010 й
5. Ўзбек тили изоҳли луғати. Тўртинчи жилд. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2008 й,

РОЛЬ И ФУНКЦИИ АНТОНОМИИ В ЯЗЫКОВОЙ СИСТЕМЕ

Хасанова Дилдорахон Дилмуроджон кизи

студент направления русского языка и литературы, Кокандский
государственный педагогический институт

Аннотация: В данном исследовании анализируется влияние антонимов на языковую и речевую коммуникацию. Практическая значимость антонимов обуславливается пониманием их функционирования в повседневных коммуникативных ситуациях. Хотя лингвистическое обоснование играет важную и фундаментальную роль, оно служит вспомогательным инструментом для других дисциплин, помогая им разобраться в нюансах использования антонимов. Некорректное употребление антонимов может привести к многочисленным недопониманиям и даже к культурным столкновениям. В рамках данного теоретического подхода, посвященного антонимам и их значимости, в первой части статьи будет рассмотрена их обработка и функциональная роль, а во второй части - функции антонимов в дискурсе.

Ключевые слова: антоним, лексическая семантика, лингвистика, антономия, лексика, функция употребления антонимов.

Значимость антонимов в практическом плане обуславливается их пониманием при употреблении в повседневных коммуникативных ситуациях. Хотя лингвистическое толкование антонимов имеет важное и фундаментальное значение, оно помогает другим дисциплинам лучше разобраться в ситуациях и контекстах их использования. Неправильное употребление антонимов может привести к множеству недоразумений и межкультурных конфликтов. В связи с этим можно утверждать, что "антоним обладает более прочной связью между лексико-семантическими отношениями». Носители языка интуитивно используют антонимы во всех сферах жизни. Антоним играет важную роль в ряде областей, таких как лингвистика, психология, литературоведение, психолингвистика, а также в изучении языка у детей. Он используется для выражения бинарной оппозиции во всех модальностях и коммуникативных регистрах, как в устной, так и в письменной речи, как в отношении фактов, так и в художественной литературе, в рамках как стандартного, так и неформального использования языка.[1/с.175]

По сути, это смысловая связь или бинарная оппозиция между лексическими единицами, обладающими противоположными или контрастными значениями. К примеру, в предложении "Вы забываете то, что хотите **запомнить**, и помните то, что хотите **забыть**" ("Дорога" Кормака Маккарти) выделенные слова "забыть" и

"запомнить" противопоставлены друг другу. Иными словами, они являются антонимами.

Вклад лингвистики в изучение конкретных антонимов неоспорим. Благодаря лингвистике стало понятно, что антонимы способствуют более точному определению значений слов в сходных/двуязычных словарях. Это имеет огромное значение для лексикографии.

В сфере лингвистики антонимы выступают в качестве источника обогащения языка. С их помощью происходит образование антонимических пар, имеющих общий корень (как в грамматике), с помощью префиксов (чаще) или, реже, суффиксов (в стилистических антонимах).

Связь с психологическими антонимами прослеживается в исследованиях, посвященных ассоциативным связям слов. Эти исследования помогают понять, как человеческий разум оперирует противопоставлениями.

В литературе антонимы – это отличительная черта драматической прозы. Они влияют на творчество писателей. Примером использования антонимов для подчеркивания идеи служит фраза "Робкие люди предпочитают спокойный деспотизм бурному морю свободы". Таким образом, антонимы – это мощный инструмент аргументации, повествования, объяснения и описания.[2]

Антоним занимает важное место в лексикографии, а также в лексикографических работах, ориентированных на изучающих язык.

Отмечается, что антонимы (наряду с синонимами и многозначностью) усиливают экспрессивность политической и социальной лексики, делая ее более разнообразной. Именно потребность в противопоставлении действительности, событиям, мнениям и т.д. обуславливает наличие антонимов в лексиконе. Это приводит к появлению новых слов, например, "небюрократический" (от "бюрократический"). Образование таких слов происходит по определенным языковым моделям. Антоним также играет важную роль в разработке знаков и символов, например, светофоров, а также в различных видах визуального искусства. По словам Дж. Томаи, антонимы выполняют следующие функции:

Разъяснительная: антонимы помогают понять значение слов в словарях, учебных текстах и т.д.

Контрастная: антонимы позволяют построить противопоставления, как в стихотворении Ф. Ноли "Мертвые в изгнании";

Ибо он любил тебя, когда они ненавидели тебя,

Ибо он плакал, когда они смеялись над тобой,

Ибо он одел тебя, когда они обнажили тебя.

В рамках лексикологии выделяют три основных типа антонимов:

Градуированные антонимы: оцениваемые антонимы, представляющие собой спектр значений между двумя противоположностями, например:

- Большой/маленький:
- Умный/глупый:
- Счастливый/грустный:
- Здоровый/больной:

Реляционные (обратные) антонимы- представлены парами слов: находящихся в тесной взаимосвязи, где одно слово не существует без другого , например;

- Спереди/сзади
- Открыто/закрыто
- Муж/жена
- Привет/пока

Дополнительные антонимы- эта категория включает пары слов, которые являются абсолютными противоположностями и не могут иметь промежуточных значений.

- Правда/ложь
- Живой/мертвый
- Вкл/выкл
- День/ночь
- Один/много

Присутствие антонимов в языке обусловлено особенностями когнитивной деятельности человека, а именно его способностью воспринимать действительность во всей ее противоречивой сложности, в единстве и борьбе противоположностей. Таким образом, контрастные слова, как и обозначаемые ими понятия, находятся в тесной взаимосвязи и взаимозависимости. Слово "добрый" активирует в сознании лексему "злой", "далеко" ассоциируется с "близко", "ускорить" с "замедлить". В антонимические отношения вступают наименования явлений и предметов, которые соотносительны, принадлежат к одной и той же категории объективной действительности как взаимоисключающие. Из этого следует, что антонимы не только взаимно отрицают друг друга, но и одновременно взаимопредполагают друг друга.[4/стр17]

Существенное значение антонимов в устной и письменной речи обуславливается их способностью акцентировать внимание на ключевых моментах текста или выступления, тем самым усиливая их смысловую нагрузку. В литературных произведениях антонимы находят применение в различных стилистических приемах, таких как синекдоха и парадокс, позволяя автору выделить те или иные качества персонажей или явлений. Помимо этого, антонимы служат эффективными инструментами повествования, аргументации, описания и объяснения, делая текст более емким, логичным и

убедительным. Важную роль антонимы играют и в процессе овладения языком, способствуя формированию у носителей языка более глубокого и точного понимания значений слов.

Антонимические отношения представляют собой лексико-семантическую категорию, основанную на контрасте значений слов. При этом важно отметить, что количество антонимов у слова не ограничено одним. Синонимические связи между словами открывают возможность выражать противопоставление понятий в более развернутой форме, используя ряд синонимов (например: конкретный-абстрактный-отвлеченный, веселый-грустный-печальный-унылый-скучный-кручинный.) Такой подход к изучению антонимов требует пересмотра традиционного представления о них как о замкнутых парах слов.[6]

Подводя итог, мы можем сказать, что с точки зрения роли антонимов можно сказать, что в некоторых отношениях он играет важную роль, поскольку мы перечислили выше. Антонимы служат хорошим объяснением лексикографии в определениях слов в словаре. Они также выглядят как хороший инструмент для формирования антитезы в литературе. Также образное значение антонима является выразительным средством в литературе. Что касается языковых способностей к словообразованию, можно сказать, что они играют значительную роль в обогащении языка и словарного запаса. Важность антонима, наблюдаемая в процессе усвоения родного языка и второго языка, а в нашем конкретном случае - английского языка.[4]

Семантические различия антонимов заставляют их выполнять противоположные функции в дискурсе, который функционирует в ассоциации с этими синтаксическими фреймами, в которых координируются антонимы. В конце важно подчеркнуть тот факт, что антонимы являются важной частью повседневного общения в различных обстоятельствах. Как показали приведенные выше примеры, антонимы используются для различения значений предложений и их структур и являются источником новых средств общения.

Несмотря на лингвистическое обоснование, изучающие второй язык должны освоить использование антонимов, одновременно сохраняя бдительность при интерпретации их смысла. Благодаря распространенности в журналистике и других информационных ресурсах, являющихся ценными инструментами для изучения языков, антонимы часто используются для различных модификаций выражений. В разных языках их использование может отличаться, поэтому при ежедневном употреблении языка важность понимания их значения возрастает, даже если иногда мы не осознаем этого в полной мере.

Литература:

1. Васильев Л.М. Современная лингвистическая семантика Текст. / Л.М. Васильев. М.: Высшая школа, 1990. - 175 с
2. Вежбински Я. Антонимо-синонимические отношения в лексике: (На материале художественных произведений А. П. Чехова): дис. канд. филол. наук Текст. / Я. Вежбински. Ростов н/Д, 1983. - 342 с.
3. Иванова В.А. Антонимия в системе языка Текст. / В.А. Иванова. Кишинев: Штиинца, 1982. 162 с.
4. Балахонская Л.В. Языковые антонимы и контекстно противопоставляемые слова как средство создания контраста в произведениях А.Вознесенского: Автореф. дис . канд. филолог, наук Текст. / Л.В. Балахонская. Л., 1987. -17 с.
5. Хасанова, Д. Д. К вопросу о теоретических основах вариативности орфоэпической нормы русского языка / Д. Д. Хасанова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2023. — № 51 (498). — С. 490-492. — URL: <https://moluch.ru/archive/498/109305/>
6. АНТОНИМИЯ КАК ОБЪЕКТ ТЕОРЕТИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ М.С. Пестова/Астрель, 2009. - С. 354. 4.

МАЪМУРИЙ СУД ЖАРАЁНИДА СУД ХАРАЖАТЛАРИНИ ҚЎЛЛАШ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Юлдашов Сирожиддин Артикбоевич

Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби маъмурий ҳуқуқ
йўналиши тингловчиси

Аннотация: Ушбу мақолада мамлакатимизда одил судлов жараёнида давлат божинининг моҳияти ва функциялари, унинг ставкалари, давлат божидан озод қилиш билан боғлиқ имтиёзлар, шунингдек амалиётда жорий қилиш масалалари ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: суд-ҳуқуқ, маъмурий ҳуқуқ, одил судлов, давлат божини қўллаш асослари, давлат божи ставкалари, имтиёялар, шаффоф ставкалар.

Сўнги йилларда суд-ҳуқуқ тизимини ривожлантириш ва қонун устуворлигини таъминлаш, маъмурий ҳуқуқ соҳасида фуқаролар ва юридик шахсларнинг бузилган ёки низолашаётган ҳуқуқларини ёхуд қонун билан қўриқланадиган манфаатларини ҳимоя қилиш, қонунийликни мустаҳкамлаш ҳамда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишга қаратилган салмоқли ишлар амалга оширилмоқда.

Одил судловни амалга ошириш учун давлатнинг харажатларини қоплаш суд тўловинини ундириш йўли билан амалга оширилади.

Ўзбекистон Республикасида маъмурий ишлар бўйича давлат божини тўлаш билан боғлиқ муносабатлар Ўзбекистон Респбликасининг “Давлат божи тўғрисида”ги ЎРҚ 6 январ 2020 йилдаги қонуни ҳамда Ўзбекистон Республикаси Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодекснинг 12-боби билан тартибга солинади.

Ушбу қонунларнинг мақсади давлат божини белгилаш, ундириш, уни қайтариш ва тўлашдан озод қилиш соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат.

Хусусан, қонунда ишлар бўйича судга мурожаат қилганда қаятий суммада тўланиши лозим бўлган давлат божи белгиланган (Мисол тариқасида идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар юзасидан низолашиш тўғрисидаги аризалар бўйича фуқаролардан БХМнинг 5 барвари, юридик шахс ва якка тартибдаги тадбиркорлардан БХМнинг 20 барвари, маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг, республика ижро этувчи ҳокимият органларининг, маъмурий-ҳуқуқий фаолиятни амалга оширишга ваколатли бўлган бошқа органларнинг, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг қарорлари, улар мансабдор шахсларининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан берилган аризалар

(шикоятлар) бўйича фуқаролардан БҲМнинг 70 фоиз, юридик шахс ва якка тартибдаги тадбиркорлардан БҲМнинг 10 барвари миқдорида; зарарларнинг ўрнини қоплаш ҳақидаги аризалар (шикоятлар) бўйича зарарларнинг ўрнини қоплаш ҳақидаги талаб суммасининг 2 фоизи миқдорида, бироқ БҲМнинг 1 бараваридан кам бўлмаган миқдорда; нотариал ҳаракатни амалга ошириш, фуқаролик ҳолати далолатномалари ёзувини рўйхатга олиш рад этилганлиги ёхуд нотариуснинг ёки фуқаролик ҳолати далолатномаларини ёзиш органи мансабдор шахсининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) юзасидан низолашиш тўғрисидаги аризалардан (шикоятлардан) БҲМнинг 1 баравари; давлат рўйхатидан ўтказиш рад этилганлиги ёхуд белгиланган муддатда давлат рўйхатидан ўтказишдан бўйин товлаганлик устидан шикоят қилиш тўғрисидаги аризалар (шикоятлар) бўйича фуқаролардан БҲМнинг 1 барвари, юридик шахс ва якка тартибдаги тадбиркорлардан БҲМнинг 10 барвари; апелляция, кассация ва назорат тартибида берилган шикоятлардан аризалар (шикоятлар) берилганда тўланиши лозим бўлган ставканинг 50 фоизи; суд ҳужжатларининг дубликатларини ва кўчирма нусхаларини, шунингдек тарафларнинг ва ишда иштирок этувчи бошқа шахсларнинг илтимосига биноан судлар томонидан ишлардан бериладиган бошқа ҳужжатларнинг кўчирма нусхаларини бериш тўғрисидаги аризалардан ҳужжатнинг ҳар бир бети учун — БҲМнинг 2 фоизи ундирилиши белгиланган).

Ўзбекистон Республикасида низоларни ҳал қилишнинг муқобил усуллари ҳали етарлича ишлаб чиқилмаганлиги сабабли, судга мурожаат қилиш имкониятини чеклаш учун суд тўловларининг кўпайиши, давлат суди ва муқобил усуллардан фойдаланишни рағбатлантириш ноўрин деб ҳисобланади. Дарҳақиқат, суд ҳаражатлари институтини ислоҳ қилишга уни янада “шаффоф” этиш орқали эришиш мумкин. Хусусан, суд тўловини тўлаш тартибини соддаштириш тавсия этилади.

Иқтисодий судларнинг суд тўловлари ставкаларини боғлайдиган бўлсак, иқтисодий судларда суд тўлов ставкаларини даъво нархига боғлаш, бош тортиш мақсадга мувофиқ эмас, деб ўйламиз. Даъво нархи ишнинг ўзи кўриб чиқилишининг мураккаблиги ва давомийлигига бевосита боғлиқ эмас. Шу билан бирга, судлар томонидан барча ишлар бир хил даражада ҳар томонлама ва объектив равишда кўриб чиқилади, яъни бир хил мураккабликдаги ҳолатларда суд тўлови кўпроқ миқдорда тўланади, аммо даъвонинг бошқа нархи суд томонидан алоҳида эътибор ёки вақт ажратишни тақозо этмайди.

Натижада, шахслар суд химоясига мурожаат қилиш учун тенг бўлмаган имкониятларга эга бўлган вазият юзага келади. Суд тўловларини ишнинг тоифасига қараб тенг миқдорда белгилаш янада мантиқий ва адолатли кўринади.

Шунингдек қонуннинг 10-моддасига кўра, баъзи ишлар, аризалар ва шикоятлар юзасидан муайян шахслар маъмурий судларда давлат божини тўлашдан озод қилинган.

Шунга кўра, тадбиркорлик субъектлари — тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш билан боғлиқ ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини бузаётган маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг, республика ижро этувчи ҳокимият органларининг, маъмурий-ҳуқуқий фаолиятни амалга оширишга ваколатли бўлган бошқа органларнинг, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг, улар мансабдор шахсларининг қарорлари, ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан судга мурожаат қилганда;

1¹) жисмоний шахслар — ўз ҳуқуқларини ва қонуний манфаатларини бузаётган маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг, республика ижро этувчи ҳокимият органларининг, маъмурий-ҳуқуқий фаолиятни амалга оширишга ваколатли бўлган бошқа органларнинг, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг, улар мансабдор шахсларининг қарорлари, ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан судга мурожаат қилганда;

2) Ўзбекистон Республикаси Савдо-саноат палатаси ва унинг ҳудудий бошқармалари — давлат бошқаруви органларининг, маъмурий-ҳуқуқий фаолиятни амалга оширишга ваколатли бўлган бошқа органларнинг, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг, улар мансабдор шахсларининг қарорлари, ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан палата аъзоларининг манфаатларини кўзлаб берилган аризалар бўйича;

3) нодавлат нотажорат ташкилотлари — ўз ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини бузаётган давлат органларининг ғайриқонуний қарорлари, улар мансабдор шахсларининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан судга шикоят қилганда;

4) Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятини мувофиқлаштириш бўйича республика кенгаши ҳамда Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятини мувофиқлаштириш бўйича ҳудудий кенгашлар — фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини бузаётган давлат бошқаруви органларининг, маъмурий-ҳуқуқий фаолиятни амалга оширишга ваколатли бўлган бошқа органларнинг, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг, улар мансабдор шахсларининг қарорлари, ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан судга шикоят қилганда;

5) ногиронлиги бўлган шахсларнинг жамоат бирлашмалари, шунингдек уларнинг муассасалари, ўқув-ишлаб чиқариш корхоналари ва бирлашмалари — ўз ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини бузаётган давлат бошқаруви органларининг, маъмурий-ҳуқуқий фаолиятни амалга оширишга ваколатли

бўлган бошқа органларнинг, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг, улар мансабдор шахсларининг ғайриқонуний қарорлари, ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан судга шикоят қилганда;

б) давлат солиқ хизмати органлари, молия ва божхона органлари — барча ишлар ҳамда ҳужжатлар бўйича;

7) прокуратура органлари — давлатнинг, юридик ва жисмоний шахсларнинг манфаатларини кўзлаб бериладиган аризалар юзасидан;

8) адлия органлари — давлатнинг, юридик ва жисмоний шахсларнинг манфаатларини кўзлаб бериладиган аризалар юзасидан;

9) юридик ва жисмоний шахслар — давлат ижрочисининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан бериладиган аризалар (шикоятлар) бўйича;

10) Ўзбекистон фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгаши, Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва туманлар фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгашлари — фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгаларининг ҳуқуқлари ҳамда қонуний манфаатларини бузаётган давлат бошқаруви органларининг, маъмурий-ҳуқуқий фаолиятни амалга оширишга ваколатли бўлган бошқа органларнинг, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг, улар мансабдор шахсларининг қарорлари, ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгаларининг манфаатларини кўзлаб бериладиган аризалар (шикоятлар) юзасидан;

10¹) Ўзбекистон Республикаси Рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш қўмитаси ҳамда унинг ҳудудий органлари — ўз зиммасига юклатилган ваколатларга мувофиқ судларга кўриб чиқиш учун бериладиган аризалар ва шикоятлар юзасидан;

10²) Ўзбекистон Республикаси Давлат активларини бошқариш агентлиги ва унинг ҳудудий органлари, Ўзбекистон Республикаси Давлат активларини бошқариш агентлиги ҳузуридаги Бўш турган объектлардан самарали фойдаланишни ташкил этиш маркази ҳамда унинг ҳудудий органлари — ўз зиммасига юклатилган ваколатларга мувофиқ судларга кўриб чиқиш учун бериладиган даъволар ва аризалар юзасидан;

10³) Ўзбекистон Республикаси Капитал бозорини ривожлантириш агентлиги ва унинг ҳудудий органлари — ўз зиммасига юклатилган ваколатларга мувофиқ судлар кўриб чиқиши учун бериладиган аризалар юзасидан;

10⁴) Ўзбекистон Республикаси Уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш вазирлиги ҳузуридаги Кўп квартирали уй-жой фондидан фойдаланиш соҳасини назорат қилиш инспекцияси ва унинг ҳудудий инспекциялари — кўп квартирали уй-жой фондини сақлаш ва ундан фойдаланиш соҳасида ўз зиммасига

юклатилган ваколатларга мувофиқ судлар кўриб чиқиши учун бериладиган аризалар юзасидан;

11) мулкдорлар — хусусий мулк ҳуқуқини амалга ошириш билан боғлиқ бўлган ўз ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари бузилганлиги тўғрисида давлат органларининг ва бошқа органларнинг, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг қарорлари, улар мансабдор шахсларининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан судга шикоят қилиш ҳақидаги ишлар юзасидан;

12) чет эл инвестициялари иштирокидаги акциядорлик жамиятлари — уларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари бузилганлиги тўғрисидаги аризалар (шикоятлар) юзасидан;

13) тарафлар — муайян яшаш жойига эга бўлмаган шахсни реабилитация марказига жойлаштириш ҳақидаги ишлар юзасидан;

14) Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги ҳузуридаги Маданий мерос департаменти ва унинг ҳудудий бошқармалари — моддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан оқилона фойдаланишга доир ишлар юзасидан;

15) Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича вакил — тадбиркорлик субъектлари манфаатларини кўзлаб берилган аризалар (шикоятлар) юзасидан;

16) Ўзбекистон Республикасининг Ҳисоб палатаси — Ўзбекистон Республикасининг иқтисодий манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадида берилган аризалар (шикоятлар) юзасидан;

17) Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги ҳузуридаги Оила ва хотин-қизлар кўмитаси ҳамда унинг ҳудудий бўлинмалари — хотин-қизларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадида бериладиган аризалар, шикоятлар ва даъволар юзасидан;

18) Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш давлат жамғармаси — ўз ҳуқуқлари ҳамда қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш юзасидан аризалар ва шикоятлар билан судга мурожаат қилганда;

19) педагог ходимлар — касбий фаолиятини амалга ошириш давомида педагог ходимларнинг ҳуқуқларини бузаётган давлат органларининг ғайриқонуний қарорлари, улар мансабдор шахсларининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан судга шикоят қилганда.

Ушбу модда биринчи қисмининг 1, 11, 2, 9, 1¹ ва 12-бандларида кўрсатилган шахсларнинг талабларини қаноатлантириш тўлиқ ёки қисман рад этилган тақдирда, давлат божи шу шахслардан талабларнинг қаноатлантирилиши рад этилган миқдорига мутаносиб равишда ундирилиши кўрсатиб ўтилган.

Бу ўз ўрнида қонунчилигимизда берилган катта имтиёз сифатида қараш ўринли.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат божи тўғрисида”ги ЎРҚ 6 январ 2020 йилдаги қонуни.
3. Ўзбекистон Республикаси Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодекс.

ТВОРЧЕСКО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ЭФФЕКТИВНЫЙ СПОСОБ ФОРМИРОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Уразова М.Б.

D.Sc.prof. Ташкентский международный университет Кимё

Усманова У.Б.

магистрант Ташкентский международный университет Кимё

